



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH
INSTITUTI**

**“MUHANDISLIK KOMMUNIKATSIYALARI
QURILISHI VA MONTAJI” KAFEDRASI**

O'QUV -USLUBIY MAJMUA



NAMANGAN

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAHSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH
INSTITUTI**

Ro'yhatga olindi:
№ _____

«Tasdiqlayman»
O'quv ishlari bo'yicha
prorektor

2023 y. «____» _____

«____» _____ 2023 y.

**“MUHANDISLIK KOMMUNIKATSIYALARI
QURILISHI VA MONTAJI” KAFEDRASI**

**SUV TAYYORLASH VA SUV QABUL QILISH
INSHOOTI
fanidan**

O'QUV-USLUBIY MAJMUUA

NAMANGAN

Mazkur o`quv-uslubiy majmua 5340400-Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji ta`lim yo`nalishlari uchun mo`ljallangan.

Tuzuvchi:

PhD. M.Karabayeva (NamMQI)

Ushbu o`quv-uslubiy majmua Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi kafedrasining yiqilishida ko`rib chiqilgan va institut ilmiy-uslubiy kengashida ko`rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

(___-yig'ilish bayoni, _____)

Ushbu o`quv-uslubiy majmua institutning ilmiy-uslubiy kengashida ko`rib chiqilgan va o`quv jarayonida foydalanish uchun tavsiya etilgan.

(___-yig'ilish bayoni, _____)

MUNDARIJA

1. SILLABUS.....	5
2.Fanni o'qitishda foydalaniladigan interfaol ta'lim metodlari.....	7
3. O'quv materiallari.....	24
4. Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari.....	82
5. Testlar.....	83
6. Glossariy.....	91
7. Ilovalar.....	100
8. Adabiyotlar.....	130

S I L L A B U S

Fanning qisqacha tavsifi			
OTMning nomi va joylashgan manzili	Namangan muhandislik-qurilish instituti		I.Karimov ko`chasi 12-uy
Kafedra	Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji		Qurilish fakulteti tarkibida
Ta`lim sohasi va yo`nalishi	5340400 –Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji		Bakalavriat bosqichining 5340400 –Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji
Fanni (kursni) olib boradigan o`qituvchi to`g`risida ma`lumot:	k.o`q. X.Jo`rayev		doni78@inbox.ru
Dars mashg`ulotini o`tkazishning vaqti va joyi:	O`quv-boshqarma tomonidan ishlab chiqilgan jadval asosida 7 bino 218-xonada		Kursning boshlanish va davom etish muddati: II-semestr davomida Suv tayyorlash va suv qabul qilish inshooti o`quv rejasiga muvoviq to`rtinchi kurs, VII-VIII semestrlarda
Individual grafik asosida professor o`qituvchining talabalar bilan ishlash vaqti:	Haftaning dushanba, chorshanba, juma kunlari soat 14.00 dan 16.00 gacha Haftaning seshanba, payshanba, shanba kunlari soat 14.00 dan 16.00 gacha		
Fanga ajratilgan o`quv soatlarining o`quv turlari bo`yicha taqsimoti	Auditoriya soatlari		
	Ma`ruza 30	Amaliy 30	Tajriba - 90
Fanning boshqa fanlar bilan uzviy aloqasi (prerekviziitlari):	Suyuqlik va gazlar mexanikasi, issiqlik ta`minoti, isitish va ventilyatsiya, suv ta`minoti va kanalizatsiya, ventilyatsiya ba havoni konditsiyalash, issiqlik texnikasi, oqava suvlarni tozalash inshootlari.		

Fanning mazmuni	
Fanning dolzarbligi va qisqacha mazmuni:	talabalarda suv bilan ta'minlash tizimlarini loyihalash, ularning konstruktiv yechimlari, tizimlardagi uskuna va jihozlarni to'g'ri loyihalash va tanlashga doyr masalalarni o'rgatish, suv ta'minoti tizimlarni qurish masalalari va usullari, montaj ishlari, sozlash masalalari va sinash ishlari hamda ulardan foydalanish bo'yicha bilim, boshlangich ko'nikmalarni hosil qilish va malakasini shakllantirishdir.
Talabalar uchun talablar	- Professor-o'qituvchiga hurmat bilan munosabatda bo'lish; - Institut intizom qoidalariga rioya qilish; - Mobil telefonni dars davomida o'chirish; - Berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish; - Guruhdoshlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish; - Plagiat man etiladi; - Darsga o'z vaqtida kelish; - 4 soatdan ortiq dars qoldirilgan taqdirda, dekanat ruxsati bilan darsga kirish.
Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi	Professor-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin, telefon orqali baho masalasi muhokama qilinmaydi, lekin oraliq, joriy va yakuniy baholash faqatgina institut hududida, ajratilgan xonalarda va dars davomida amalga oshiriladi.

II. FANNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

“Insert” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod talabalarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o'zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod talabalar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- □ o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni e'tilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi;
- ▪ yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lim oluvchilarga tarqatiladi yo'ki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;
- ▪ ta'lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

1-jadval

“Insert” metodi

Belgilar	Kasb	Kasblar tasnifi	Professiogramma
“V” – tanish ma'lumot.			
“?” – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma'lumot men uchun yangilik.			
“– ” bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta'lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi va ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob berilib mashg'ulot yakunlanadi.

“SWOT-tahlil” metodi

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarini topishga, bilimlarni mustahkam-lash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S-(strength) - kuchli tomonlari

W-(weakness) – zaif, kuchsiz tomonlari

O-(opportunity) - imkoniyatlari

T-(threat) - to'siqlar

2-jadval
“SWOT-tahlil” metodi

S	Kuchli tomonlari (shaxs psixologiyasi)	
W	Ojiz tomonlari (kasbiy shakllanishga to'siq bo'luvchi ichki omillar)	
O	Imkoniyatlar (kasbiy shakllanishga mavjud imkoniyatlar)	
T	Xavflar (kasbiy shakllanishga to'siq bo'luvchi tashqi faktorlar)	

3-jadval
Kasbiy rivojlanish bo'yicha SWOT tahlili

S	Kasbiy shakllanishning kuchli tomonlari	To'g'ri kasb tanlash. O'zi xohlagan holda ish faoliyatini to'g'ri tashkillashtirishi. Jamiyat uchun kompetentli kadrqa aylanishi.
W	Kasbiy shakllanishning kuchsiz tomonlari	Noto'g'ri kasb tanlaganligi uchun ish unumining pastligi. Kasbga qiziqishning yo'qligi sabab o'z kasb-korini chuqur egallash uchun intilishning yo'qligi
O	Kasbiy shakllanishning imkoniyatlari (ichki)	O'z kasbiy shakllanishi yuzasidan chuqur bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi va faoliyatda yuqori samaradorlikka eri-shish. O'z kasbining yetuk mutaxassisiga aylanishi. Ishlab chiqarish sifati ortadi.

T	To'siqlar (tashqi)	Zamonaviy kasb - korlikni egallashda chet tillarini o'rganish va axborot texnologiyalarini mukammal egallash uchun sharoitlarning yo'qligi va vaqt yetishmasligi
----------	-------------------------------	---

“Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

“Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha so'z bo'lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qaerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday, Qanaqa (How), Nima-natija (What).

4-jadval

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
------------------------	-----------------------------------

1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	☒ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ☒ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ☒ axborotni umumlashtirish; ☒ axborot tahlili; ☒ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshiriqni belgilash	☒ individual va guruhda ishlash; ☒ muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; ☒ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshiriqining echimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	☒ individual va guruhda ishlash; ☒ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; ☒ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ☒ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	☒ yakka va guruhda ishlash; ☒ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ☒ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ☒ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

1-“case stady”: Siz, o'zingiz yoqtirgan kasb bo'yicha Oliy o'quv yurtiga o'qishga topshirmoqchisiz, ammo ota-onagiz qarshi.
 Savol: Bu o'rinda siz qanday yo'l tutish mumkin deb o'ylaysiz?

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlar

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang(individual va kichik guruhda).
- Kasb tanlash va o'z nuqtai nazaringizda bajariladagin ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish).

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. SHuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Assesment – inglizcha so'z bo'lib, “baho”, “baholash” ma'nosini bildiradi. Bugun bu usul ta'lim tizimiga ham joriy etilgan bo'lib, talabalarning bilim darajasi, malaka va ko'nikmasini baholashga xizmat qiladi. SHuning uchun ushbu metoddan foydalanib, keysni samarali hal etish mumkin.

6-jadval Assesment metodi



Venn Diagrammasi metodi


Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni	amalga	oshirish	tartibi:
•ishtirokchilar	ikki kishidan	iborat	juftliklarga birlashtiriladilar va
ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki	asosning o'ziga xos,	farqli jihatlarini	
(yoki aksi)	doiralari	ichiga yozib	chiqish taklif etiladi;
•navbatdagi bosqichda	ishtirokchilar	to'rt kishidan	iborat kichik
guruhlariga birlashtiriladi	va har bir	juftlik o'z tahlili bilan	guruh
a'zolarini tanishtiradilar;			

- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko'rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

1-diagramma

Venn Diagrammasi (Kasblar va ularning profesiografiyasi bo'yicha)



Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya'ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o'rganish talab etiladi. SHundan so'ng, ishtirokchilarga to'g'ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o'qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a'zolarini o'z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta'sir o'tkazib, o'z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to'xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo'limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o'z ishlarini tugatgach, to'g'ri harakatlar ketmaketligi trener-o'qituvchi tomonidan o'qib eshittiriladi, va o'quvchilardan bu javoblarni «to'g'ri javob» bo'limiga yozish so'raladi.

4.«To'g'ri javob» bo'limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo'limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa «0», mos kelsa «1» ball qo'yish so'raladi. SHundan so'ng «yakka xato» bo'limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab

qo'shib chiqilib, umumiy yig'indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda «to'g'ri javob» va «guruh bahosi» o'rtasidagi farq chiqariladi va ballar «guruh xatosi» bo'limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo'shiladi va umumiy yig'indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o'qituvchi yakka va guruh xatolarini to'plangan umumiy yig'indi bo'yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baqolariga qarab, ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajalari aniqlanadi.
«Kasbiy maslahat bosqichlari» ketma-ketligini joylashtiring. O'zingizni tekshirib ko'ring!

“Blits-o'yin” metodi

Harakatlar mazmuni	Yakka baho	Yakka xato	To'g'ri javob	Guruh bahosi	Guruh xatosi
Psixodiagnostika					
Psixologik ma'rifat					
Psixologik kommunikatsiya					
Psixologik perseptsiya					
Psixologik konsul'tatsiya					

“Bahs-munozara” metodi

“Bahs –munozara” metodi- biror mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar bilan o'zaro bahs-munozara va fikr almashuv tarzida o'tkaziladigan metoddir.

билан ўзаро баҳс-мунозара ва фикр алмашув тарзида ўтказиладиган

«BAHS-MUNOZARA» metodining tuzilmasi

Muammoli savol beriladi

Turli fikrlar bildiriladi


Fikr-mulohazalar tinglanadi

Fikr-mulohazalar tahlil qilinadi

Aniq va maqbul yechim tanlab olinadi

“**Men – hamkorlikdaman**” degan bu holat kattaroq guruhlar tarkibida tashkil etiladi. Munozara a’zolari to’rt-besh kishidan bo’lib alohida stollar atrofida o’tirib, har bir guruh o’z qarorini chiqaradi. «Munozara» klublari» faoliyati shu tarzda tashkil etiladi.


2-diagramma Men – hamkorlikdaman metodi



Bu keltirilgan har bir xolat baxs qatnashuvchilarida o'ziga xos ruhiy tayyorgarlik va mas'uliyat xissini keltirib chiqaradi.

3-diagramma

«Qanday?» diagrammasi orqali muammoni yechishning usul va vositalari



“ Fikrlarning shiddatli hujumi ” metodi

“Fikrlarning shiddatli hujumi” metodi – *jamoa orasida muayyan topshiriqlarni bajarayotgan har bir o’quvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro’yobga chiqarishga va o’quvchilarda ma’lum jamoa (guruh) tomonidan bildirigan zid fikrga qarshi g’oyani ilgari surish layoqatini yuzaga keltirishga asoslangan metoddir. Bunda jamoa bo’lib g’oyalar ishlab chiqishda ishtirokchilarning ijodiy imkoniyatlari faollashtiriladi va unga zid g’oyalar qo’yiladi.*


**“Fikrlarning shiddatli hujumi”
metodi** *Ye.A.Aleksandrov tomonidan
asoslangan hamda G’.Ya. Bush
tomonidan qayta ishlangan.*

“Fikrlarning shiddatli hujumi” metodini – *amalda qo’llash*

“Fikrlarning shiddatli hujumi” metodi – ijtimoiy, gumanitar va tabiiy yo’nalishlardagi fanlar yuzasidan tashkil etiladigan mashg’ulotlar jarayonida birdek muvaffaqiyatli qo’llash mumkin.

Ushbu metoddan foydalanishda asoslangan mashg’ulot bir necha bosqichda tashkil etiladi. Ular quyidagicha:

“Fikrlarning shiddatli hujumi”



3-shakl. Metoddan foydalanish bosqichlari

“ Fikrlarning shiddatli hujumi” metodi qo'llash jarayonida quyidagi holatlar yuzaga keladi:


O'quvchi-talabalar tomonidan muayyan nazariy bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga erishish;

– *vaqtni iqtisod qilish;*

– *har bir o'quvchi-talabani faollikka undash;*

Ularda erkin fikrlash layoqatini shakllantirish.

4-diagramma
“Muammoli vaziyat” metodi



“Fikrlarning shiddatli hujumi” metodi tuzulmasi




“6x6x6” metodi

Bu metod èrdamida bir vaqtning o'zida 36 nafar o'quvchi-talabani muayyan faoliyatga jalb etish orqali maolom topshiriq èki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir aozosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin.


“6x6x6” metodi asosida tashkil etilaètgan mashg'ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo'lgan 6 ta guruh o'qituvchi tomonidan o'rtaga tashlangan muammo (masala)ni muhokama qiladi (4-diagrammaga qarang).

5-diagramma



Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o'qituvchi 6 ta guruhni qayta shakllantiradi

9-jadval Toifali jadval




Toifali sharhini tuzish qoidalarini

1. Toifalar bo'yicha ma'lumotlarni taqsimlashning yagona usuli mavjud emas.
2. Bitta mini-guruhda toifalarga ajratish boshqa guruhda ajratilgan toifalardan farq qilishi mumkin.
3. O'rganuvchilarga oldindan tayàrlab qo'yilgan toifalarni berish mumkin emas: bu ularning mustaqil tanlovi bo'la qolsin.
4. Toifali sharhni yaratish yakuniy mahsul sifatida emas, balki jaraèn sifatida muhim.

10-jadval
Kontseptual jadval


Toifalar				



Kontseptual jadval

..... ga èndoshuvlar, tushunchalar	Tavsiflar, toifalar, ajralib turadigan belgilar va shu kabilar			

11-jadval Del'fi texnikasi



Al'ternativ g'oyalarni baholashning jamlama varog'i (namuna)

I	1			2			3			n		
	D	B	K	D	B	K	D	B	K	D	B	K
a	1	2	2	3	4	12						
b	2	2	4	3	6	18						
v	4	6	24	1	2	2						
n												
Жами			30				32					

Bunda: – muhokama ishtirokchilari familiyasi;

D – darajali baho (1-chi o'rindan – eng muhim taklif, noxirgi o'ringacha – muhimligi kam, ikkilamchi taklif);

B – alternativlarni baholash, ballarda (1 – yuqori ball, 10 – eng kam ball);

K – $D * B$ ko'paytirish.

NAZARIY MATERIALLAR

1-MA'RUZA

Kirish. Suv tayyorlash va suv qabul qilish inshootlari faniga kirish.

1. Tabiiy suv manbaini va ulardan suv bilan taminlash maqsadida foydalanish tabiiy manbalarining turlari.
2. Tabiiy suv manbalarinin xarakteriskalash manbalarning turlari
3. Tabiiy suv manbaini xarakteriskalash manbalarning debiti va uning faoliy o'zgarishi.
4. Turli suv manbalarning sanitarik sifati.
5. Suv manbalaridan oqilona foydalanish va ularni muxofaza qilish tatbirlari.

1. Tabiiy suv manbaini va ulardan suv bilan taminlash maqsadida foydalanish tabiiy manbalarining turlari.

Suv atrof-muhitimizning mavjudligini ta'minlashda zaruriy vosita bo'lib, sayyoramizdagi butun tirik organizmlarni, eng avvalo butun insoniyatni yashashi uchun sharoit yaratadi. Shuning uchun ham suvga «Erning qon tomir tizimi» deb ta'rif berilishi bejiz emas. Sayyoramizda o'simliklar va hayvonot dunyosini tarqalishi va ularni yashashi uchun zarur sharoitning mavjudligi albatta suv bilan bog'liq. qacda suv ziyoda bo'lsa, u yerda butun tirik mavjudot gullab yashnaydi va ko'payadi, aksincha suv kam yoki umuman yo'q bo'lsa, hayotning o'zi ham bo'lmaydi. Suv insoniyatning madaniy hayotini shakllanishi va tarqqiy etishida sayyoramizdagi boshqa tabiiy resurslarga nisbatan sezilarli rol o'ynaydi. Suvning sanoat va qishloq xo'jaligidagi ahamiyati beqiyosdir. Uning maishiy extiyojlarni qondirish uchun zarur vosita ekanligi xech kimga sir emas. Suv inson organizmi, barcha o'simlik va hayvonlar tarkibini tashkil qiladi. Ko'plab tirik mavjudodlar uchun yashash muhiti vazifasini bajaradi.

Suv tabiatda aylanma harakat qilib, yer yuzasini shakllantirishda ishtirok etadi. U buzadi, eritadi va turli xil noorganik moddalarni oqizib, oxir oqibatda cho'kindi tog' jinslarini va tuproqlarni hosil qiladi. Suv yuqori issiqlik sig'imiga va past issiqlik o'tkazuvchanlik hususiyatiga egaligi bilan fasl va ob-havoga katta tahsir ko'rsatadi. quyoshdan keladigan issiqlikni o'zida yutib yillik va sutkalik harorat o'zgarishlarini tartibga solib turadi.

Gidrosfera suvining asosiy massasi Yer yuzasining 71% ini egallab turuvchi Dunyo okeanlarida tarqalgan. Dunyo okeanlaridagi suv massasining xajmi 1.386 mln. 500 ming km³ ga yaqin. Bu ko'rsatkich yerdagi umumiy suv zaxiralarining 96,53% ga yaqinini

tashkil qiladi. quyidagi jadvalda (Xalqaro gidrologik o'n yillik) dasturi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalariga asoslangan ma'lumotlar keltirilgan.

1-jadval

Erda tabiiy suvlarning tarqalishi.

№	Suv manbalari	Egallagan maydoni, km ²	Xajmi, km ³	Umumiy zaxirasiga nisbatan xissasi, %
1	Dunyo okeanlari	361300000	1338500000	96,53
2	Muzliklar va qorlar	16227500	24064100	1,74
3	Er osti suvlari	15580000	23700000	1,712
4	Tuproqlardagi namlik	82000000	16500	0,01
5	Quriqlikdagi suvlar:			
	a) Ko'l suvlari	2058700	176400	0,013
	b) Botqoqlik suvlari	2682600	11470	0,0008
	v) Daryo suvlari	148800000	2120	0,0002
6	Biologik suvlar	510000000	1120	0,0001
7	Atmosferadagi suvlar	510000000	12900	0,001
	Jami		1386484600	100(0,007)

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, faqat quriqlakda joylashgan ichish uchun yaroqli bo'lgan suv miqdori 24190 ming km³ga teng. Bu ko'rsatkich Yer sayyorasida tarqalgan chuchuk suv zaxirasining 1,8 foizini tashkil qiladi. Agar biz jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga tayanib, ichish uchun yaroqli bo'lgan suv zaxiralarining manbai-muzlik va qorliklar, yer osti suvlari, ko'l va daryo suvlari deb qabul qiladigan bo'lsak unda umumiy chuchuk suv zaxirasi 48 million km³ga etadi.

Atrof-muhitning gidrologik va gidrogeologik tarkibini shakllanishida bizning sayyoramiz uchun hos bo'lgan suvning umumbashariy aylanma harakati katta ahamiyatga ega. Bu haqda biosfera mavzusida ma'lumot berilgan. Dunyo okeanlaridan bir sutka davomida parlagan(875 km³) chuchuk suvning asosiy qismi(775 km³) Dunyo okeanlari ustiga, qolgan qismi esa quruqlikka borib yog'adi. quruqlikka yog'adigan yog'in-sochin xajmi yiliga 47 ming km³ tashkil qiladi. Xuddi ana shu 47000 km³ suv *quriqlikning yillik suv resursi* deb ataladi.

2. Tabiiy suv manbalarinin xarakteriskalash manbalarining turlari

O'rta Osiyo sharoiti suv ta'minoti tizimi ayrim elementlarini juda kadimdan ko'llanishini taqozo etgan. Quduklar, suv ko'targich qurilmalar, charxpalaklar, kanallar, to'g'onlar, xovuzlar shular jumlasidandir. Hisob kitob ishlari qilinmagan taqdirda ham moxir ustalar o'z hunarini shogirdlariga, shogirdlar-shogirdlarga o'rgatishi hozirgi kunda ham quduk qazuvchi, charxpalak yasovchi ustalarning ishlari hozirgi zamon hisoblashlar natijalariga juda mos tushmoqda.

Sanoatni rivojlanishi, qishloq ho'jaligini rivoji suv ta'minoti tushunchalarini yig'ib, hisob-kitob usullarni mukammallashtirib, suv ta'minoti elementlarini zamon talabiga moslab turishga majbur etmoqdaki – buning negizida mustakil fanlar vujudga keldi. Juda ko'p olimlar, kollektivlar mehnatlarini-ilmiy izlanishlari yakuni darsliklar, monografiyalar, metodik ko'llanmalar, normativ (meoyoriy) hujjatlar sifatida chop etilgan. O'zbek tilida chop etilgan darsliklar yo'qligi esa, bu sohada katta izlanishlar maydoni mavjudligini taqozo etadi. Sobiq ittifoqda ushbu sohalar

markazdan turib boshqarilganligi barcha ilmiy ishlarni rus tilida olib borishni talab etgan. Hozirgi kunga kelib mustaqil Respublikamiz prezidenti qarorlariga muvofiq “Suv muammolari” bilan shug’ullanuvchi institut tashkil bo’ldi. Ko’plab loyixalash institutlari, Oliygo’harlar, ilmiy tekshirish institutlari suv ta’minoti masalalari bilan shug’ullanmoqdalar.

Chunki suv ta’minoti masalalari juda achinarli axvolda. Ichimlik suvi bilan ta’minlanmagan qishloqlar, suvini sifati o’ta yo’mon axvoldagi shaharlar xali serob. Prezidentimizni “Qishloq aholisini ichimlik suvi va gaz bilan ta’minlash haqida”gi qarori juda o’rinli bo’ldi. Ushbu qarorni bajarish borasida katta ishlar olib borilmoqda. Bu esa ko’plab ommaviy kasallanishlarning oldini olishning asosiy yo’llaridandir. Chunki sobiq ittifoqda suvdan noratsional foydalanish, uni isrof qilish oddiy bir xol edi. “Orol” fojiasi bunga yakkol misoldir. Viloyatimiz xududida shu kabi xollar ko’’. Toshloq, Kuva, Fargona tumani va shahri suv ta’minoti axvoli talabga javob bermaydi. Sanoat korxonalarini, ayniqsa kimyo sanoati korxonalarini asossiz shahrimizga yigilib qolganligi ichimlik suvi manbalari tarkibini o’zgartirib, yaroqsiz xolga olib kelmoqda.

Shu sabab bu sohada qilinajak ishlar ko’lami ham keng. Suvni kunlik meoyoriy miqdorini aniqlash, undan tejamkorlik bilan foydalanish yo’llarini qidirish, mavjud inshootlar ishini o’rganish va ularni takomillashtirish, yangi-yangi elementlar yaratish, suv tozalash jarayonini o’rganish va mukammallash, tabiiy energetik resurslardan ushbu sohada keng foydalanish va boshqa juda ko’ muammolar o’z yechimini to’moqda.

Ixchangina suv tozalash qurilmalari, quyosh energiyasi bilan ishlovchi qurilmalar, aylanma suv ta’minoti tizimlari, ichimlik suvi manbalarini ifloslanishini oldini olish borasidagi tadbirlar bu boradagi dastlabki qadamlar xolos.

Aholini hamda sanoatni ichimlik suvi bilan yetarli miqdorda ta’minlash xalq xo’jaligining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Ichimlik suv bilan ta’minlash aholining turmush darajasini yaxshilash bilan birga suv orqali o’tadigan har xil kasalliklardan ham saqlaydi. Hozir shaharlar va qishloqlarda qurilayotgan ko’ qavatli imoratlarni suv ta’minotisiz tasavvur qilish qiyin. Suv asosiy xom ashyo hisoblanib sanoatning rivojlanishiga katta ta’sir etadi.

3. Suv bilan ta’minlash va suv iste’molining manbailari.

Hozirgi kunda sanoat korxonalarining, shahar bilan qishloq aholisining suvga bo’lgan talabi yanada ortib, bir kecha-kunduzda ishlatiladigan suv miqdori sanoatda 800 mln.kub metrdan ortiq, shahar aholisi uchun 125,5 mln.kub metrga, qishloq aholisi uchun 83,5 mln.kub metrga boradi.

Shahar, qishloq va sanoat korxonalari uchun yer osti suvlari, daryo, ko’l suvlari asosiy suv manbai hisoblanadi.

Daryo va yer osti suvlari o’zining fizik hamda kimyoviy xususiyatlariga ko’ra bir-biridan farq qiladi, ularni ichish holiga keltirish har qaysi suvning sifatini alohida tekshirishni va ishlov berishni talab etadi.

Sug’oriladigan dehqonchilikka asoslangan O’rta Osiyo sharoitida suv juda ko’p ishlatiladi. Bo’z yerlarning o’zlashtirilishi, yangi shahar va kishloklarning ‘aydo

bo'lishi suv manbalari nisbatan kamrok bo'lgan O'rta Osiyo sharoitida suvdan tejab foydalanishni takozo qiladi.

Daryo suvlarini ichish, undan sanoatda, qishloq xo'jaligida foydalanishdan tashkari, u shahar, sanoat korxonalari va qishloq xo'jalik chiqindi va oqava suvlarini tashlash uchun ham manba hisoblanadi.

Bu esa shu suvlarni iste'mol qilishni qiyinlashtiradi. Shuning uchun daryo va yer osti suvlarini muhofaza qilish talab etiladi.

Hozirgi zamon texnikasi sifati har xil bo'lgan suvlarni ichimlik holiga keltirish usullarini ishlab chiqdi, bu esa suv manbalaridan kengroq foydalanishga yordam beradi.

Keyingi vaqtlarda sanoat korxonalaridagi chiqindi suvlar daryo hamda anhorlarga kamroq tashlanmoqda yoki tozalab tashlanmoqda. Shu bilan birga ularni ishlatish uchun daryodan kam miqdorda suv olmoqdalar. Ular asosan o'zi ishlatgan suvni qaytadan ishlatmoqdalar.

Zamonaviy yangi suv tozalovchi qurilmalarning yaratilishiga qaramay, ayrim yerlarda daryolarga hamon sanoat korxonalaridan, sugorish sistemalaridan, aholi turar joylaridan har xil chiqindi suvlar tozalanmasdan tashlanmoqda. Bu suvlar tarkibida aholi sog'ligi uchun zararli moddalar ko'rib, u aholi iste'moli uchun foydalanishni qiyinlashtirmoqda.

Ayrim shaharlarimizdagi ichimlik suvini tozalovchi inshootlarda tozalangan hamda markaziy suv ta'minotidan aholi iste'mol qilayotgan ichimlik suvining sifati belgilangan talablarga javob bermaydi. Shuning uchun suvni ichimlik holga keltirish yo'llarini keng ommaga, shahar va qishloq, shuningdek sanoat korxonalarining suv ta'minoti bilan shugullanuvchi xodimlarga tushuntirishning ahamiyati katta.

4. Suv iste'molchilarining asosiy turlari

Suv ta'minoti tizimlari loyihalanganda, avvalam bor, iste'molchilarga qancha va qanday sifatda suv berish zarurligi aniqlanadi. Iste'molchilarning turiga ko'ra, suv har xil miqdor va sifatda uzatiladi. Iste'molchilarni asosan uch turga bo'lish mumkin.

1. Aholining ichadigan xo'jalik - ichimlik ehtiyoji uchun sarflanadigan suvlar (ichish, ovqat tayyorlash, yuvinish, kir yuvish, turar - joylarning tozaligini saqlash, shahar va aholi turar - joylarining obodonchiligini saqlash, ko'chalarga suv sepish, daraxt va gulzorlarni sug'orish, favvoralar uchun suv va h.k.).

Suvning sifatiga qo'yiladigan talablar iste'molchining suvni ishlatish maqsadiga ko'ra quyidagicha bo'ladi. Misol uchun, aholi ichishi uchun sarflanadigan suvlar, avvalambor sanitariya - gigiena talablariga to'la javob berishi kerak. Suvda insonlar sog'ligiga zarar keltiradigan, kasallik tarqatuvchi bakteriyalar bo'lmasligi, tiniq va hidsiz hamda ta'mi yaxshi bo'lishi kerak.

2. Sanoat korxonalarida texnologik jarayon uchun sarflanadigan suv (bug' hosil qilish, sovitish, mahsulotlarni yuvish, turli mahsulotlarga ishlov berish va boshqalar).

Har xil sanoat korxonalari uchun suv sifatiga turlicha talablar qo'yadi. Suv sifati korxonalarning turlariga va qaysi texnologik jarayonda ishlatilishiga bog'liqdir

3. Yong'inni o'chirish uchun sarflanadigan suv.

Bundan tashqari, suv — suv ta'minoti tizimining o'z ehtiyojlari uchun ham sarflanadi (filg'rlarni yuvish, suv tarmoqlari va suv tortib oluvchi inshootlarni yuvish va boshqalar).

5. Suv iste'moli me'yorlari

Suv iste'moli me'yori deganda vaqt birligida yoki mahsulot birligida sarflanadigan toza suv miqdoriga aytiladi. Xo'jalik – ichimlik, ishlab chiqarish va o't o'chirish uchun ishlatiladigan suv iste'moli me'yori turlicha belgilangan.

Suv ta'minoti tizimini loyihalaganda iste'molchi talab qiladigan suv miqdorini aniqlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Xo'jalik - ichimlik suv iste'moli me'yori QMvaQ 2.04.02-96 bo'yicha kecha kunduz davomida bir kishi tomonidan xo'jalik - maishiy uchun o'rtacha suv iste'moliga klimatik sharoitlarga va turar - joy, yashash sharoitiga (jihozlanganlik darajasiga) qarab belgilanadi. Masalan: ichki suv uzatish va oqova suv tarmog'i bilan ta'minlangan lekin vannasiz turar – joy binolari uchun 125-160 l/k-k.

- ichki suv uzatish va oqova suv tarmog'i bilan ta'minlangan, joyida suv isitiladigan vannali turar - joy binolari uchun 160-230 l/k-k;
- ichki suv uzatish va oqova suv tarmogi bilan ta'minlangan, markazlashtirilgan issiq suv ta'minoti tizimlari mavjud turar - joy binolari uchun 230-350 l/k-k.

Ko'cha suv uzatish kolonnalari bilan ta'minlangan turar - joy binolari uchun 30 - 50 l/k-k.

Aholining xo'jalik - ichimlik ehtiyojlari uchun sarflanadigan suv sarfi bir kishiga kecha - kunduz davomida xo'jalik - ichimlik uchun sarflanadigan suv sarfi miqdorini aniqlab, kecha - kunduz davomida aholi sarflaydigan umumiy suv miqdori belgilanadi.

Aholi turar - joylarida aholining soni qancha ko'p bo'lsa, sarflanadigan suv miqdori ham shuncha ko'p bo'ladi.

Kecha kunduz davomida bir odam tomonidan xo'jalik - ichimlik uchun o'rtacha suv iste'moliga, solishtirma suv iste'moli me'yori deyiladi.

Solishtirma suv iste'moli bir kishining xo'jalik - ichimlik ehtiyoji uchun sarflaydigan suv miqdori bilan birga ma'muriy - jamoat binolarida iste'mol qiladigan suvlarni ham o'z ichiga oladi. Ular shahar tumanlaridagi turar - joylarning obodonlashtirish darajasiga bog'liq, obodonlashtirish darajasi yuqori bo'lsa, solishtirma suv iste'moli ham yuqori bo'ladi. Ma'lum bir miqdor suv, joyning iqlim sharoitiga ham bog'liq bo'ladi. Jazirama issiq iqlim joylarda suv iste'moli, sovuq iqlimli joylar sharoitiga nisbatan ko'p suv sarflanadi. SHu bilan birga suv miqdoriga, turar - joylarda ko'p qavatli binolarning joylashganligi ham ta'sir qiladi.

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar uchun suv iste'moli qiymatlari tanlanganda suvning sifati, obodonlashtirish darajasi, mahalliy va iqlim sharoitlari inobatga olingan holda aniqlanadi.

2. Aholini mahsulot bilan ta'minlaydigan sanoat korxonalarining suvga bo'lgan ehtiyoj miqdorini aniqlash aholi turar - joyida xo'jalik – ichimlik ehtiyojlari uchun sarflanadigan umumiy suv miqdoridan 5—10 % qo'shimcha qabul qilish mumkin, agar bunday ehtiyoj asoslab berilgan bo'lsa.

3. Aholi turar-joyi hisobga olinmagan joylarda suv sarfi suv ta'minoti tizimidan foydalanadigan korxonalarning ko'rsatmasiga binoan qo'shimcha aniqlanadi. Bunday

ma'lumotlar bo'lmagan taqdirda xo'jalik - ichimlik va tadbirkorlik ehtiyojlari uchun sarflanadigan umumiy suv miqdoriga 10—15 % qo'shimcha suv berishga ruxsat etiladi.

4. Aholi turar - joyidagi aholi soni 1 mln. dan ortiq bo'lganda, quyidagi jadvalda ko'rsatilgan aholining solishtirma suv iste'moli me'yorini oshirish mumkin, agarda har bir holat asoslanib berilsa. Mahmuriy binolarda xo'jalik - ichimlik ehtiyoj uchun bitta kishiga o'rtacha kecha - kunduzlik solishtirma sarfi 1 - jadvalga qarab aniqlanadi.

t/r	Aholi turar joylari, shahardagi aholi soni (ming odam)	Mahmuriy binolarda xo'jalik - ichimlik ehtiyoj uchun bitta kishiga o'rtacha kecha kunduzlik suv sarfi, l/k-k
1	2	3
1	Kichik shaharlar (10dan 50 gacha)	40 - 50
2	o'rtacha shahar (50 dan 100 gacha)	50 - 55
3	Katta shaharlar (100 dan 250 gacha)	55 - 60
4	Yirik shaharlar (250 dan 500 gacha)	65 – 70
5	Juda yirik shaharlar (500 dan kup)	65 - 70

O't o'chirish uchun suv iste'mol me'yorlari ham KMvaK 2.04.02-96 bo'yicha belgilanadi.

Dushdagi bitta dush turi uchun 500 l/soat 45 minut.

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulot turiga qarab belgilanadi.

6. Iste'molchilarning kecha kunduzlik suv iste'moli tartibi

Inshootlar va qurilmalarning katta kichikligi, nasoslarning quvvati, havuzlar hajmi, suv bosim minoralarining balandligi va hajmi, quvurlar diametri, uzatiladigan suv miqdorlariga va ular uchun mo'ljallangan ishlash tartibiga muvofiq hisoblash orqali aniqlanadi. Suv ta'minoti tizimidagi inshootlarning ish tartibini aniqlashdagi asosiy omil bu iste'molchilarning suv bilan ta'minlaydigan tizimdan suv iste'mol qilish tartibidir.


Suv ta'minoti tizimi ishga tushirilganda, u iste'molchining talabini qondirishi kerak. Iste'molchining suv iste'moli to'xtovsiz grafik asosida o'zgarib turadi, bu grafikni ba'zi hollarda ma'lum darajada to'g'ri ko'ra bilishning iloji bo'lmaydi. Suv ta'minoti tizimining ish tartibi grafigi suv ta'minoti tarmoqlari va inshootlarini hisoblash uchun asos qilib olinadi.

Shuning uchun suv iste'mol qilish tartibini o'rnatishda suv ta'minoti shaklini loyihalash paytini e'tiborga olish kerak. Ba'zi suv iste'molchilari uchun bu masalani xal etish qiyinchilik tug'dirmaydi. Shulardan biri sanoat korxonalarida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun sarflanadigan suv iste'moli tartibidir. Chunki mahsulotni ishlab chiqarish texnologik loyiha asosida amalga oshiriladi. Shahar aholisini suv bilan ta'minlash tizimi loyihalanganda suv iste'mol qilish tartibini tuzish murakkabdir, chunki bunday suv ta'minlash tizimida aholining suv iste'mol

qilish tartibi juda ko'p omillarni inobatga olgan holda aniqlanadi. Tizimdagi ayrim elementlarning ishlash tartibini to'g'ri va foydali loyihalash uchun kecha kunduz davomida suv iste'mol qilish grafigini qabul qilish kerak.

Bunday grafiklarni oldindan tuzish o'ta mushkul. Tajribalar ko'rsatishicha, ularning xususiyati bitta shaharning o'zida ayrim yillar davomida va hattoki ayrim kecha kunduzlar davomida o'zgaruvchan bo'ladi. Sarflanadigan suvning bir soatdagi sarf miqdori aholining umumiy soniga, shahardagi uylarning obodonlik darajasiga, sanoat korxonalarining mavjudligi va ularning ish tartibiga, transport tarmoqlarining rivojlanganlik darajasi va boshqalarga bog'liqdir.

Rasm – 1 da axoli turar – joyida kecha kunduz davomida sarflanadigan suvning haqiqiy grafigi keltirilgan.




Rasm - 1. Aholi turar joylarida kecha kunduzda sraflanadigan suv grafigi.

Bu grafik orqali yuqorida keltirilgan ayrim omillarning suv iste'mol qilish tartibiga ta'sirini kuzatish mumkin. Bunday grafikni tuzish vaqtida bir soat davomida iste'mol qilinadigan suv sarfi o'zgarmas deb taxmin qilinadi. Bir soat davomida iste'mol qilinadigan suv sarfining aholiga talab qilingan miqdorda suv yetkazib berishga yetarli darajada tahsir qilmaydi. Nasos shahobchasi hamda suv bosim minorasidan suv bilan ta'minlash tartibi belgilanadi.

Ikkinchi bosqich nasos shahobchasi (II - NSH) ning ishlash tartibini tanlash suv iste'moli grafigi asosida amalga oshiriladi. II - NSH ning suv uzatishi, obhekt suv iste'molidan katta bo'lgan soatlarda ortiqcha suv suv bosim minorasi bakiga tushadi, agar II - NSH ning suv uzatishi obhekt suv iste'molidan kam bo'lgan soatlarda esa yetmayotgan suv suv bosim minorasi bakidan uzatiladi. Bakning minimal sig'imini

ta'minlash uchun nasoslarning suv uzatish grafigini ob'ekt suv iste'moli grafigiga maksimal yaqinlashtirishga harakat kilinadi. Ammo nasoslarni tez – tez o'chirib, qo'shib turish nasos shahobchasining ishini qiyinlashtiradi va nasos agregatlarini boshqarishning elektr apparatlariga salg'biy tahsir ko'rsatadi.



3-rasm. Suv iste'moli va nasos shahobchasining suv uzatishining pog'onali grafigi.

Bundan tashqari, kam suv uzatuvchi nasoslarning ko'p miqdorda o'rnatish II - NSH ning maydonini ortishiga olib keladi va kichik nasoslarning f.i.k. katta nasoslarning f.i.k. dan hamma vaqt kichik bo'ladi. Shuning uchun odatda II - NSH ning ishlash tartibini ikki yoki uch pog'onali qabul qilinadi. II - NSH ning har qanday tartibida nasoslarning uzatayotgan suvi ob'ektning suv iste'molini to'liq (100 %) qoplashi lozim. II - NSH ning ikki pog'onali ish tartibini qabul qilamiz va ikkita variantlarni ko'rib chiqamiz. I – variantda har bir nasos kecha kunduzlik suv iste'molini 2,5 % ini beradi deb qaraymiz. Unda bir nasos bir kecha kunduz davomida (bir kecha kunduzda) kecha kunduzlik suv sarfining $2,5 \cdot 24 = 60$ % ini beradi. U holda ikkinchi nasos kecha kunduzlik suv sarfining $100 - 60 = 40$ % ini uzatishi lozim va uni $40:2,5 = 16$ soatga qo'shish kerak.

Suv iste'moli grafigiga asosan (2– rasm) ikkinchi nasosni soat 6 da qo'shish va soat 21 da o'chirishni taklif qilamiz.

Mustahkamlar uchun savollar

1. Suv ta'minotini xalq xo'jaligidagi ahamiyati?
2. Suv ta'minoti tarixi va hozirgi ahvoli?
3. Yashab turgan shahar va tumanimizdagi suv ta'minoti masalalari haqida so'zlab bering?
4. Suv iste'moli me'yorlari?
5. Kecha kunduzlik suv iste'moli tartibi qanday?
6. Iste'molchilarni turlarini ayting?

2-MA'RUZA

Suv manbalari, tabiiy suv sifati suv manbalarini suv oluvchi inshootlar.

Reja:

1. Asosiy suv istemol qiluvchilar turlari.
2. Suv taminoti tizimlaridagi solishtirma suv sarifi meyori va ushbu qiymatni aniqlash uchun lozim bo'lgan parametrlari.
3. Ichimlik suvi manbaalari
4. Ichimlik suvi manbaalariga qo'yiladigan sanitar gigienik talablar
5. Suvning statik va dinamik sathi
6. Yer osti ichimlik suvi manbaalari
7. Ochiq suv manbalaridan suv oluvchi inshootlar

Suv iste'molchilarining asosiy turlari

Suv ta'minoti tizimlari loyihalanganda, avvalam bor, iste'molchilarga qancha va qanday sifatda suv berish zarurligi aniqlanadi. Iste'molchilarning turiga ko'ra, suv har xil miqdor va sifatda uzatiladi. Iste'molchilarni asosan uch turga bo'lish mumkin.

1. Aholining ichadigan xo'jalik - ichimlik ehtiyoji uchun sarflanadigan suvlar (ichish, ovqat tayyorlash, yuvinish, kir yuvish, turar - joylarning tozaligini saqlash, shahar va aholi turar - joylarining obodonchiligini saqlash, ko'chalarga suv sepish, daraxt va gulzorlarni sug'orish, favvoralar uchun suv va h.k.).

2. Sanoat korxonalarida texnologik jarayon uchun sarflanadigan suv (bug' hosil qilish, sovitish, mahsulotlarni yuvish, turli mahsulotlarga ishlov berish va boshqalar).

3. Yong'inni o'chirish uchun sarflanadigan suv.

Suv iste'moli me'yorlari

Suv Iste'moli me'yori deganda vaqt birligida yoki mahsulot birligida sarflanadigan toza suv miqdoriga aytiladi. Xo'jalik – ichimlik, ishlab chiqarish va o't o'chirish uchun ishlatiladigan suv Iste'moli me'yori turlicha belgilangan.

Suv ta'minoti tizimini loyihalaganda Iste'molchi talab qiladigan suv miqdorini aniqlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar uchun suv Iste'moli qiymatlari tanlanganda suvning sifati, obodonlashtirish darajasi, mahalliy va iqlim sharoitlari inobatga olingan holda aniqlanadi.

2. Aholini mahsulot bilan ta'minlaydigan sanoat korxonalarining suvga bo'lgan ehtiyoj miqdorini aniqlash aholi turar - joyida xo'jalik – ichimlik ehtiyojlari uchun sarflanadigan umumiy suv miqdoridan 5—10 % qo'shimcha qabul qilish mumkin, agar bunday ehtiyoj asoslab berilgan bo'lsa.

3. Aholi turar-joyi hisobga olinmagan joylarda suv sarfi suv ta'minoti tizimidan foydalanadigan korxonalarining ko'rsatmasiga binoan qo'shimcha aniqlanadi. Bunday

mahlumotlar bo'lmagan taqdirda xo'jalik - ichimlik va tadbirkorlik ehtiyojlari uchun sarflanadigan umumiy suv miqdoriga 10—15 % qo'shimcha suv berishga ruxsat etiladi.

4. Aholi turar - joyidagi aholi soni 1 mln. dan ortiq bo'lganda, quyidagi jadvalda ko'rsatilgan aholining solishtirma suv iste'moli me'yorini oshirish mumkin, agarda har bir holat asoslanib berilsa. Mahmuriy binolarda xo'jalik - ichimlik ehtiyoj uchun bitta kishiga o'rtacha kecha - kunduzlik solishtirma sarfi 1 - jadvalga qarab aniqlanadi.

t/r	Aholi turar joylari, shahardagi aholi soni (ming odam)	Mahmuriy binolarda xo'jalik - ichimlik ehtiyoj uchun bitta kishiga o'rtacha kecha kunduzlik suv sarfi, l/k-k
1	2	3
1	Kichik shaharlar (10dan 50 gacha)	40 - 50
2	o'rtacha shahar (50 dan 100 gacha)	50 - 55
3	Katta shaharlar (100 dan 250 gacha)	55 - 60
4	Yirik shaharlar (250 dan 500 gacha)	65 – 70
5	Juda yirik shaharlar (500 dan kup)	65 - 70

Axoli punktlarida xo'jalik ichimlik suvlari me'yorlari

Axoli yashash binolarini tumanda qulay joylashish darajasi	Bir kishi uchun kecha kunduzlik me'yori
Ichki suv ta'minoti va kanalizatsiya bilan jixozlangan binolarda	125-160
SUVNING ION TARKIBI, DIAGRAMMASI, QATTIQLIGI VA QATTIQLIK TURLARI.

Reja:

1. Suvning ion tarkibi.
2. Oksidlanish –qaytarilish reaksiyalari.
3. Suvdagi kimyoviy va biokimyoviy elementlar tarkibi.

Suvning ionli tarkibi. Tabiiy suvlarning tarkibidagi tuzlarning umumiy miqdori Na^+ , K^+ , Ca^{2+} va Mg^{2+} kationlar va HCO_3^- , SO_4^{2-} , Cl^- anionlarga bog'liqdir, qolgan ionlarning miqdori juda kam bo'lgani tufayli ular suvning sifatiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Suv elektrneýtral bo'lgani uchun, quyidagi tenglamani yozish mumkin:



Suvning tarkibidagi tuzlarning miqdorini diagrammalar yordamida ifodalasa bo'ladi. Bunda ma'lum masshtabda kation va anionlarning miqdori mg. ekv/l-da ko'rsatiladi. Masalan; rasmda keltirilgan diagramma bo'yicha suvda $\text{Ca}(\text{HCO}_3)_2$, $\text{Mg}(\text{HCO}_3)_2$, NaHCO_3 , Na_2SO_4 , NaCl , KCl tuzlari bor.

Ca^{2+}	Mg^{2+}	Na^+	K^+
	+		
HCO_3^-	SO_4^{2-}	Cl^-	

Suvdagi asosiy ionlar va ularning kelib chiqishi. Suvdagi asosiy ionlarga quyidagilar kiradi: Cl^- , SO_4^{2-} , HCO_3^- , Na^+ , Mg^{2+} , Ca^{2+} va K^+ . Bu ionlar suvning mineral tarkibining asosiy qismini tashkil etadi. Asosiy ionlar suvning ximiyaviy turini aniqlab beradi yoki uning makrokomponenti deyildi.

Mikrokomponentlar esa suvda juda oz miqdorda uchraydilar va suvning kimyoviy turini belgilamaydilar. Bir qator komponentlar esa oraliq holatini egallaydi. Bular qatoriga H^+ , NH_4^+ , NO_3^- , H_2SiO_2 .

Xlorid ionlari kuchli migrasiyaga moyil bo'lib u harakatlantiruvchi harakterga egadir. Xlorid ionlari qiyin eruvchi minerallar hosil qilmaydi, kolloid sistemalari bilan adsorbsiyalanmayli (tropik hududdagi qizil tuproqli erdan bo'lak) biogen yo'li bilan to'planmaydi. Natriy, magniy va kalsiyning xlorli tuzlarini eruvchanligi juda yuqoridir. Shu sababli xlorid ionlari hech qanday to'siqsiz suv orqali migrasiyalanadi. U barcha suvlarda uchraydi. Suv mineralizasiyasining oshishi xlorid ionlarining absolyut va nisbiy oshishini ta'minlaydi. Agar o'ta minerallashgan suv bo'lsa undagi xlor ionlari boshqa ionlarga nisbatan birinchi o'rinni egallaydi. Tabiiy suvlarga xlor ionlarining kelib tushishi manbai quyidagilardir:

Tog' jinslarining xlorli minerallari (galit, NaCl silvin KCl va boshq.)-vulqonlardan chiqadigan chiqindi.

Yog'ingarchiliklar - sanoat korxonalar va xo'jalikdan chiqadigan chiqindi suvlar

Sulfat ionlari-ham harakatlanuvchi bo'lib ammo xlorid ionlariga nisbatan biroz passivroqdir. Tuproqning kolloidlari deyarli SO_2 - 4ni ushlay olmaydi, faqatgina yuqori namgarchilikka ega tropikdagi tuproqni musbat zaryadlangan temir va alyuminiyning gidroooksidlari bilan boyitgandagina sulfat ionlarini adsorbsiya qilish mumkin. Tabiiy suvlarda sulfat ionlarining bo'lishi suvdagi kalsiy (Ca^{2+}) ionlarining qatnashishi bilan limitlanadi va nisbatan kam eruvchi CaSO_4 hosil qiladi. Kislorod bo'lmasligi (anaerob muhitda) sulfat ionlari beqaror bo'lib tezda vodorod sulfidga aylanadi. Bunga asosiy sababi sulfat hosil qiluvchi bakteriyalardir va ularning faoliyati organik moddalar bor joyda rivojlanadi.

Yer usti va er osti suvlari uncha chuqur qoplamga ega bo'lmasa ularda albatta sulfat ionlari bo'ladi. Bu suvlarning juda chuqur qatlamlarida kislorod bo'lmaganligi sababli sulfatsiz suv bo'ladi. Suvda sulfatning bo'lishida cho'kindi jinslar sababchidir. Bu jinslarning tarkibini gips va angidridlar tashkil etadi. Unda tashqari sulfat ionlarining hosil bo'lishida vodorod sulfidining (N_2S) oksidlanishi ham katta rol o'ynaydi. Cho'l sharoitlarida esa yuza va er osti suvlarining sulfat ionlari bilan boyishida tarkibida galitdan tashqari gips ($\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$) va miroblig bor bo'lgan solonchaklarning ishqorlanishi asosiy rol o'ynaydi.

Gidrokarbonat va karbonat ionlari tabiiy suvlarning ximiyaviy tarkibini tashkil etuvchi qismidir. Bu ikkala ionlar, asosan ko'mir kislotasidan ajralib chiqadi.



Bu ionlar karbonat sistemasining ximiyaviy muvozanatini hosil qilib tabiiy suvlar uchun katta ahamiyatga egadir. Karbonat (CO_2) gidrokarbonat (HCO_3^-) va karbonat ($\text{CO}_2 + 3$) ionlarining eritmada taqsimlanishi pH qiymati bilan belgilanadi.

Ko'mir kislotasi hosilalarining o'zaro munosabatlarining pH qiymati bilan bog'liqligini ko'rsatuvchi jadval quyida keltirilgan.

2-jadval

Ko'mir kislotasi hosilalarining o'zaro munosabatlarining pH qiymati bilan bog'liqligini

Shakli	pH (molyar o'lchamda %)							
	4	5	6	7	8	9	10	11
H_2CO_3	99,7	97,0	76,7	24,99	3,22	0,32	0,02	-
HCO_3^-	0,3	3,0	23,3	74,98	96,70	95,84	71,43	20,0
$\text{CO}_2 + 3$	-	-	-	0,03	0,08	3,84	29,55	80,0

Agar jadvaldagi qiymatlarni tahlil qilsak suvdagi $\text{pH} < 5$ da gidrokarbonat ionlari (HCO_3^-) ning bo'lishi nolga intiladi. Neytral va ishqoriy suvlarda gidrokarbonat ionlarining ko'pligi kuzatiladi. Agar $\text{pH} > 8$ bo'lsa karbonat ($\text{CO}_2 + 3$) ionlari hosil bo'lishi kuzatiladi va ular ishqoriy suvlarda hukmronlik qiladilar. Gidrokarbonat ionlari barcha suvlarda uchraydi. Mineralizasiyasi kam bo'lgan suvlarda ko'proq uchraydi.

Gidrokarbonatning to'planishi kalsiyning qatnashishi bilan limitlanadi. Agar tabiiy suvlarda Ca^{++} (kalsiy) ioni ko'proq bo'lsa gidrokarbonat HCO_3^- miqdori uncha ko'p bo'lmaydi. Odatda daryo va ko'l suvlarida HCO_3^- miqdori 250 mg/l dan oshmaydi. Yer osti suvlarida uglerod ikki oksidi (SO_2) ko'roq bo'lsa gidrokarbonat konsentrasiyasi o'ta yuqori bo'ladi. (Narzon suvi-1,24 g/l). Karbonat ioni ($\text{CO}_2 + 3$) tabiiy suvlarda juda kam bo'ladi.

Umuman suvdagi gidrokarbonat (HCO_3^-) va karbonat ($\text{CO}_2 + 3$) ionlarining manbai sifatida ohaktosh, dolomit, mergel (ohakgil) larni keltirish mumkin.




Bu reaksiyalardan ko'rinib turibdiki gidrokarbonat ionlarining hosil bo'lishi juda murakkab bo'lib reaksiyaning chapdan o'ngga ketishi uglerod oksidining qatnashishi bilan bog'liqdir, agar u qanchalik ko'p bo'lsa suvda karbonatning erishi shunga jadal bo'ladi.

Natriy ionlari (Na^+) kationlar orasida tarqalishi bo'yicha birinchi o'rinni egallaydi. Natriyning barcha tuzlari yuqori darajada erish qobiliyatiga ega bo'lib uning ionlari ham yuqori migrasiya xususiyatiga ega bo'lib xlordan so'ng ikkinchi o'rinni egallaydi. Juda past mineralli suvlarda natriy ioni qatnashishi bo'yicha uchinchi o'rinni egallaydi. Yuqori darajali minerallashtirilgan suvda natriy ionining miqdori oshib boradi. Dengiz suvlarida kationlarning 84% ni tashkil qiladi.

Yer qatlamida Na^+ ning miqdori uni massasining 2,5% tashkil etadi. Asosiy manba sifatida erdan otilib chiqqan tog' jinslarining emirilishidan hosil bo'ladi (granit va boshqalar).

Kaliy ioni (K^+) o'zining kimyoviy tarkibi va miqdori bo'yicha natriy ioniga juda yaqin. Kaliy ham natriy ioni kabi asosiy anionlar bilan oson eruvchi birikmalar (KCl , K_2SO_4 , KCO_3 , KHCO_3) hosil qiladi. Ammo kaliy ionlari atmosfera yog'in suvlaridan tashqari barcha tabiiy suvlarda qatnashadi. Odatda kaliy ionlari natriy ionining 4-10% ni tashkil qiladi. Sababi u juda past migrasiya xususiyatiga egadir.

Kalsiy ionlari ohaktosh, megrel va boshqa jinslarda 10% (ba'zan 40%) tashkil etadi. Kalsiyning tirik moddalardagi miqdori 0,5% dan iboratdir. Bu element biologik jarayonlarda juda faol qatnashadi. Organizmlarning hayot faoliyati to'xtashi bilan kalsiy mineral shakliga o'tib tuproqqa o'tadi. Shuning uchun ham tuproq qorishmalari kalsiy ionlaridan iboratdir. Kuchsiz minerallashtirilgan suvlarda asosan kalsiy hukmronlik qiladi. Suvning mineral tarkibi oshishi kalsiyni kamayishiga olib keladi. Kalsiyni tabiiy suvlarda hosil bo'lishi manbai sifatida ohaktosh, dolomit va ohaktosh sementi tog' jinslari bo'lib ular suvda quyidagi sxema bo'yicha eriydilar.



Suvdagi kalsiyning juda ko'p qismi gipsning erishidan hosil bo'ladi va er qatlamida keng tarqalgandir.

Barcha holatlarda kalsiy ioni suvda HCO_3^- va SO_4^{2-} – anionlari bilan birgalikda uchraydi.

Magniy ionlari - o'zining ximiyaviy xossasi bo'yicha kalsiyga juda yaqin va o'xshashdir. Ammo migratsiya bo'yicha bir biridan farq qiladi. Biologik aktivligi kalsiyga nisbatan ancha pastdir. Magniy ionlari deyarli barcha tabiiy suvlarda uchraydi. Biroq hukmron bo'lib qatnashmaydi.

Odatda past mineralli suvda kalsiy ko'p bo'lsa yuqori mineralli suvda natriy ko'p bo'ladi. Magniyning tabiiy suvlardagi konsentratsiyalashuviga asosiy sabab magniyning sulfat va biokarbonatlarning (MgSO_4 , $\text{Mg}(\text{HCO}_3)_2$) kalsiynikiga nisbatan (CaSO_4 , $\text{Ca}(\text{HCO}_3)_2$) tez eruvchanligidir.

Magniyning suvda bo'lish manbai asosan dolomit, mergel, gabbro, dunit, peridodit va boshqa jinslarning erishi va emirilishi natijasidir.

Suvning qattiqligi.

Suvning umumiy qattiqligi Qum ikki valentli nodir yerli kationlar, asosan Ca va Mg-larning miqdorini ko'rsatadi.

Umumiy qattiqlik

$[\text{Ca}^{2+}]$ $[\text{Mg}^{2+}]$

Qum=----- + -----

20,04 12,16

20,04, 12,16 - Ca va Mg ekvivalent vazni.

Qattqlik karbonat va nokarbonat bo'lishi mumkin. Gidrokarbonatlar HCO_3^- miqdoriga teng bo'lgan Ca va Mg-ning miqdori karbonat qattqlik - Kq deyiladi.

Agar Ca va Mg ionlarning miqdori gidrokarbonatlarning miqdoridan kam bo'lsa, karbonat qattqlik quyidagicha bo'ladi:

$$\begin{array}{ccc} [\text{Ca}^{2+}] & [\text{Mg}^{2+}] & [\text{HCO}_3^-] \\ \text{----} & + & \text{----} < & \text{-----} \\ 20,04 & 12,16 & 61,02 \end{array}$$

$$\begin{array}{ccc} [\text{Ca}^{2+}] & [\text{Mg}^{2+}] & \\ \text{Qk} + \text{Qu} = & \text{----} + & \text{----} \\ 20,04 & 12,16 & \end{array}$$

Qattqlik bo'yicha tabiiy suvlar quyidagi sinflarga ajratiladi:

Suvning xarakteristikasi	qattqlik, mg.ekv/l
Yumshoq	4 dan kam
O'rta qattqlikda	4-8
qattiq	8-12
juda qattiq	12 dan katta

Yer osti suvlarning qattqligi yer yuzasidagi suvlarga nisbatan yuqoridir. Ichimlik suvni qattqligi standart bo'yicha 7 mg ekv/l-ga teng bo'lishi kerak. Ishlab-chiqarish jarayonlarida, masalan; bug' qozonlarida, suv bilan qayta ta'mirlash tarmoqlarida, selluloza va boshqa texnologik jarayonlarda qattiq suvni ishlatib bo'lmaydi.

Suvning ishqoriyligi.

Suvning ishqoriyliligi kuchli kislotalar bilan reaksiyaga kirishadigan moddalarning miqdoriga bog'liqdir. Tabiiy suvlarning ishqoriyliligi, asosan, gidrokarbonatlarning miqdoriga bog'liq.

Karbonat kislotalarining turli shakllari miqdorining pH ko'rsatkichi bilan bog'liqligi quyidagi grafik orqali ifodolanadi:

Karbonat kislotalarining turli shakllarini muhitning pH-ko'rsatkichi bog'liqligi.

pH = 3,7- 4-karbonat kislota CO₂ gazi shaklida bo'ladi.

pH = 8,3 - 8,4 bo'lganda suvda asosan gidrokarbonatlar bo'ladi.

pH > 12-bo'lganda suvda faqat karbonat ionlari bo'ladi.


Suvning ishqoriyliligini HCl, H₂SO₄ kislotalar bilan fenolftalein va metiloranj ishtirokida titrlash yo'li bilan aniqlanadi. Tabiiy suvlarda karbonatli muvozanat saqlanib turadi:



Agar suvdagi CO₂-ning miqdori muvozanat holatidan oshib ketsa, u karbonat kislota deyiladi va karbonat jinslarni eritadi.

CO₂-ning miqdori muvozanat holatidan kam bo'lsa, karbonat jinslar cho'kmaga tushadi, bunday suvlar nobarqaror deyiladi. Suv aralashmalaridagi kimyoviy reaksiyalari asosan ion almashinish va oksidlanish-qaytarilish. Oksidlanish-qaytarilish reagentlarini umumiy nisbiy tarkibi oksidlanish-qaytarilish (redoks) potentsiali miqdorini harakterlaydi. Modomiki, tabiiy suvlarda aralashma kislorod mavjud bo'lsa, plastinali elektrod potentsiali vodorod elektrodu bilan taqqoslaganda ko'proq to'g'ri (polojitelniy) bo'ladi, demak bunday muhit oksidlovchi harakterga ega bo'ladi. Redoks – potentsial manfiy (teskari) ko'rsatkichi anaerob suv muhitida ega. Masalan, kislorodning o'rniga oltingugurt vodorodi ishtirok etsa. Bunday muhit qaytarilish harakteriga ega.

Ion almashinish reaksiya turiga misol qilib rux xlorid aralashmasining natriy gidrooksid bilan reaksiyasini keltirish mumkin:








Oksidlanish-qaytarilish reaksiyasiga misol qilib quyidagi reaksiyasini keltirish mumkin:



Bu yerda xlor oksidlovchi va qaytaruvchi sifatida qatnashadi (o'zi oksidlanish-qaytarilish reaksiyasi). Yodga olamiz, oksidlanish-qaytarilish reaksiyasi deb, zarrachalar bilan bo'ladigan reaksiyada (atomlar, ionlar, molekulalar) qatnashuvchilar orasida elektronlarni o'tishida yuz beradigan. Elektronlarni yo'qotish jarayonida qandaydir zarracha uning oksidlanishi, zarrachaning o'zi bo'lsa, elektron beradigan – qaytarilish deyiladi. Elektron zarrachalarini birikish jarayoni uning qaytariluvchisi, elektron zarrachalarni qabul qiluvchini – oksidlovchi deyiladi. Shunday ekan, oksidlanish-qaytarilish reaksiyasi (OQR) borishida oksidlovchi qaytariladi, qaytariluvchi bo'lsa oksidlanadi. OQR ning uchta turi farqlanadi: molekulyararo, ichki molekulyar, o'zi oksidlanish-qaytarilish. Birinchi turga misol qilib, masalan, atmosferada sodir bo'ladigan reaksiyalarni ko'rsatish mumkin:




OQRning ikkinchi turiga misol etib quyidagi reaksiyani ko'rsatish mumkin mumkin:




Uchinchi turiga misol avval keltirilgan xlor ishtirokidagi reaksiyani keltirish mumkin. Havo-suv yuzasida gazlarning bug'lanishi va aralashishi. Kislorod azotga qaraganda katta darajada aralashadi, shuning uchun tabiiy suvlarda ularning munosabati $\text{N}_2:\text{O}_2 = 65:35$ bo'ladi. CO_2 ni aralashish jarayonini o'zaro teng reaksiyalarda ko'rsatish mumkin, quyidagi keltirilganga.


Muvozanat, tabiiy suvlarda karbonat angidridning aralashish jarayoniga muvofiq:





Muvozanat, ko'mir kislotasini hosil bo'lishini xarakterlovchi:



Ko'mir kislotasining dissosatsiyasida jarayonlarning muvozanati:




Gidrokarbonat va karbonatlar gidrolizi



Atmosfera va gidrosfera o'rtasidagi CO₂ almashinishini umumiy holda quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin:

CO₂ (atmosfera)



Tabiiy suvlar pH ning qiymatiga asosan yetti guruhga bo'linadi.

O'ta nordon suv-pH <3

Nordon suv – pH =3.....5

Kuchsiz nordon suv – pH=5.....6,5


Neytral suv pH=6,5÷7,5

Kuchsiz ishqoriy suv –pH=7,5÷8,5

Ishqoriy suv-pH=8,5÷9,5

O'ta ishqoriy suv pH>9,5

pH ning miqdori juda ko'pchilik tabiiy suvlarda ko'mir kislotasi uning ioni konsentrasiyasi nisbati bilan belgilanadi. Uning dissosiyasi quyidagicha



Suvdagi biogen elementlar. Biogen moddalarga kremniyning, azotning, fosforning va temirning birikmalari kiradi.

Bu birikmalarning asosiy manbai suv havzasining ichki jarayonlaridir, hamda shu birikmalarning daryo suvlari, yog'in suvlari, sanoat korxonalari, xo'jalik maishiy va qishloq xo'jaligi oqova suvlari bilan tushadi.

Kremniy kislotasi. Kremniy o'zining tarqalishi bo'yicha yer qa'rida kisloroddan keyin ikkinchi o'rinda turadi. U tabiiy suvlarning tarkibida asosiy komponent bo'lib qatnashadi.

Azot va fosfor birikmalari konsentrasiyalari va ularning rejimi bioximik va biologik jarayonlarga bog'liqdir. Oxirgi paytlarda bu biogen moddalarni o'rganishga e'tibor kuchaytirildi, chunki u suvni birinchidan ifloslantirsa ikkinchidan zaharlaydi.

Fyuronning ta'kidlashicha agar suvdagi nitratlar miqdori 150 mg/l bo'lib bu suvni yosh bola ichsa u ko'karish (siney) ya'ni toksik sionoz kasaliga uchraydi, shuning uchun ham nitrit miqdori ichimlik suvida GOST 2874-82 bo'yicha 9 mg/l dan oshmasligi kerak. Azot tabiiy suvlarda noorganik va organik birikmalari ko'rinishida uchrab asosan ammoniy (NH_4^+), nitrit (NO_2^-), nitrat (NO_3^-) ionlari bilan qatnashadi. Azot bor organik moddalar tabiiy suvlarda muallaq zarrachalar kolloidlar va erigan molekulalar shaklida qatnashadi.

Organik moddalar. Tabiiy suvlarda har doim u yoki bu miqdorda organik moddalar bo'ladi. Ular har xil ko'rinishlarga ega bo'lishidan qat'iy nazar asosan ularni uglerod, kislorod va vodorod tashkil etadi va umumiy massaning 98,5% iboratdir. Bulardan tashqari ozroq miqdorda azot, fosfor, oltingugurt, kaliy, kalsiy va boshqa elementlar ham bo'ladi.

Sanitariya gigiena nuqtai-nazaridan suvdagi organik moddalarni ikki guruhga bo'lish mumkin. O'simlik va hayvonot qoldiqlarining bioximik chirishi natijasida hosil bo'lgan maxsulotlar (bu birikmalar zaxarsiz va gigiena nuqtai nazaridan zararsizdir). Suvga oqova suv bilan tushadigan har xil chiqindilarning buzilishi-ayinishi natijasida hosil bo'ladigan mahsulotlar. Bu moddalar kasallik tug'diruvchi mikroorganizmlar uchun qulay muhit yaratadi va shuning uchun ham ularni ichimlik suvda bo'lishi mumkin emas. Organik moddalar suvda muallaq, kolloid va erigan holatda uchraydi. Ularning miqdori quruq qoldiq bilan qattiq qoldiq orasidagi farq bilan o'lchanadi. Juda keng tarqalgan usul bu kislorodning 1 l dagi sarfi miqdori bilan o'lchanadi. Bu o'z navbatida suvning oksidlanishi deyiladi. Oksidlovchi sifatida kaliy peremanganat (KMnO_4) va kaliy bixromat ($\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$) lar qo'llaniladi.

Yer usti suvlari uchun juda yuqori oksidlanish to'g'ri keladi. Masalan, tog' daryolari uchun oksidlanish 2-3 mg/l O_2 bo'lsa, tekis joydagi daryo suvlari uchun 5-12 mg/l O_2 , botqoqliklardan chiqadigan suvlarda bir necha o'n milligram litrga to'g'ri keladi.

Suvning umumiy kimyoviy tarkibi. Suvdagi asosiy ionlar va ularning kelib chiqishi. Suvdagi erigan gazlar. Suvning ximiyaviy tarkibini shartli ravishda olti guruhga bo'linadi.

1) Barcha tabiiy suvlarda u yoki bu gazlar erigan bo'ladilar. Yer usti suvlarida eng ko'p miqdorda erigan gazlar qatoriga kislorodni (O_2) uglerod ikki oksidi (CO_2) va yer osti suvlarida esa vodorod sulfidi (H_2S) hamda metan (CH_4) kiradi. Ammo barcha suvlarda u yoki bu miqdorda azot uchraydi (N_2).

Suvda gazlarning tarqalishini shartli ravishda uning guruhga bo'lib o'rganiladi.

Juda keng tarqalgan gazlar ya'ni ko'p to'planadiganlari N_2 , O_2 , CO_2 , CH_4

Kamroq tarqalgan gazlar va ulardan ba'zi birlari unchalik ko'p bo'lmagan miqdorda to'planadilar- H_2 , H_2S , He, Ar, OY (og'ir uglevodorodli gazlar)

Lokal tarqalgan gazlar ular gaz sifatida shakllanishi bilan to'planish yuz beradi- NH_3 , SO_2 , HCl, HF va boshqalaruchinchi guruhdagi gazlar o'zlarining yuqori darajali agressivliklari bilan tezda reaksiyaga kirishadilar va o'zlarining gaz hosil qiluvchi komponentlarga xos ahamiyatlarini tezda yo'qotadilar.

Kislorod-juda kuchli oksidlovchidir u o'z navbatida tabiiy suvlarning kimyoviy tarkibini shakllanishida juda muhim rol o'ynaydi. U yuqori ximik aktivlikka ega bo'lib toza holatda eng ko'p atmosferada uchraydi, suvda esa fotosintez orqali va yer qa'rida bioximik yo'l hamda atmosfera orqali kirishi bilan hosil bo'ladi. Kislorod organik moddalarni oksidlashda hamda organizmlarning nafas olish jarayonida sarflanadi. Kislorodning uchta izotopi bo'lib asosiy vazifani ^{16}O va ^{18}O -og'ir kislorodlar bajaradi.

Tabiiy suvlarda erigan kislorodning bo'lishi katta ahamiyat kasb etib u suvda hayotning bo'lishini va suvning aerasiyalash qobiliyati borligini bildiradi. Uning miqdori 0 dan 14 mg/l, ba'zida yer usti suvlarining tarkibida 40-50 mg/l bo'lishi aniqlangan.

Metan gazi (CH_4)- rangsiz va hidsiz gaz bo'lib kelib chiqishi bioximik bo'lmaganligi uchun suvda erimaydi. Toza holatda botqoqlikda uchrab u o'simlik qoldiqlarining chirishi natijasida hosil bo'ladi.

Etan, propan va butanlar o'z holicha hosil bo'lmasdan, balki metanning gomogollaridir. Ular neft konlarida metan gazining sheriklari bo'lib, uning 20-25% tashkil etadi.

Umuman ular yer osti suvlarida ham juda oz miqdorda, ya'ni 1 litrda bir necha o'n milligramni tashkil etib asosan neft-gaz qatlamlari bor joyda uchraydi.

Azot (N_2)-ximiyaviy nuqtai-nazardan noaktiv, suvda va neftda juda kam eriydi. Asosan er qazining har xil qatlamlarida uchraydi. Ammo erigan holatda barcha suvlarda barcha suvlarda uchraydi va uning miqdori 10-16 mg/l gacha etadi.

Uglerod dioksidi (CO_2)-asosan suvda erigan holatda uchrab hosil bo'lish manbai organik moddalarning oksidlanishi natijasida (CO_2) ajralib chiqadi. Uning suvda bo'lishi xuddi kislorod singari o'simliklar dunyosining borlig'ini ta'minlaydi. U o'z navbatida suvning erituvchanlik qobiliyatini oshiradi, hamda HCO_3 va CO_3 larning hosil bo'lishida manba hisoblanadi.

Vodorod sulfidi (H_2S)-yoqilg'i gaz bo'lib juda noxush hidga ega va zaharlidir. U asosan oqsil moddalarning parchalanishi natijasi maxsulidir. Juda chuqur suv havzalarining tubida asosan suv almashishi bo'lmagan hududda organik moddalarning chirishi natijasida hosil bo'ladi.

AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan ishlar.

1. Balandlik sxemasi tuzish
2. Tozalash stansiyalari inshootlari quvurlari va kanallarida suv xarakati tezligini tanlash.
3. Tozalash stansiyasi samaradorligini aniqlash.
4. Stansiyasi kompanovkasining asosiy xolatlari
5. Reagentlar xaqida umumiy malumotlar.
6. Suvni tindirish va rangsizlantirish jarayonlarini indifikasiyalash uchun pokiakrilamiddan foydalanish.
7. Suvni tindirish va rangsizlantirish jarayonlarini indifikasiyalash uchun pokiakrilamiddan foydalanish.
8. Koagulyatni siqilgan xavo bilan eritish uchun uskuna.
9. Oxakli sutni tayyorlash.
10. Reagentlar ombori. Reagentlar omborida reagentlarni joylashtirish.
11. Reagentlar eritmasini tozalash.
12. Pag'a xosil qiluvchi kameralar.
13. Cho'kmalarning cho'kishi nazariy asoslari xaqida qisqacha malumotlar va gidravlik kattaligi.
14. Gorizontall tindirgichlarni xisoblash.
15. Cho'kmali tindirgichlar umumiy ma'lumotlar.
16. Cho'kmali tindirgichlar umumiy ma'lumotlar. Cho'kmali tindirgichlarning boshqa tindirgichlardan farqi.
17. Vertikal cho'kma zichlovchi koridorlar tindirgichni xisoblash.
18. Konussimon tubli va poddonli cho'kma zichlovchi tindirgichlarni xisoblash.
19. Filtirlar xaqida qisqacha umumiy ma'lumotlar
20. Tezkor filtirlar.
21. Tezkor filtirlarni ishlash jarayoni. Tezkor filtirlarni xisoblash.
22. Filtirlash jarayonini asosiy nazariy xolatlari.
23. Kvars yuklamali tezkor bosimsiz filtirlarni xisoblash.
24. Kvars yuklamali tezkor bosimsiz filtirlarni tuzulishi. Kvars yuklamali tezkor bosimsiz filtirlarni xisoblash.
25. Filtirlarni yuqoridan yuvish uchun uskunalar
26. Filtirlarni yuqoridan yuvish uchun uskunalar sxemasi. Filtirlarni yuqoridan yuvish suvidan foydalanish.
27. Qumli xo'jalik filtirlari.
28. Tezkor ikki oqimli filtirlar (akx filtirlar)ning ishlash prinsipi va ularni xisoblash.
29. Kantakli tindirgichlarni xisoblash.
30. Bosimli filtirlar.
31. Bosimli filtirlar. Bosimli filtirlarning turlari. Bosimli filtirlarni xisoblash

TEST SAVOLLARI

№	Savollar	javoblar			
		a	b	s	d
1	Gidrosfera suvining asosiy massasi yer yuzasining necha foizini tashkil qiladi?	70% ini	73% ini	71% ini	75% ini
2	Dunyo okeanlaridagi suv massasining xajmi qanchaga teng?	1.386 mln. 300 ming km ³ ga yaqin.	1.386 mln. 500 ming km ³ ga yaqin.	1.385 mln. 500 ming km ³ ga yaqin.	1.400 mln. 500 ming km ³ ga yaqin.
3	Dunyo okeanlari gidrosferaning necha foizini tashkil qiladi?	94,53%	96,8%	96,53%	97%
4	Dunyo okeanlari gidrosferaning necha foizini tashkil qiladi?	94,53%	96,8%	97%	96,53%
5	Muzliklar va qorlar gidrosferaning necha foizini tashkil qiladi?	1,64	1,84	1,74	1,94
6	Er osti suvlari gidrosferaning necha foizini tashkil qiladi?	1,6	1,712	1,512	1,412
7	Tuproqlardagi namlik gidrosferaning necha foizini tashkil qiladi?	0,0001	0,001	0,01	0,02
8	Biologik suvlar gidrosferaning necha foizini tashkil qiladi?	0,001	0,0001	0,01	0,1
9	Atmosferadagi suvlar gidrosferaning necha foizini tashkil qiladi?	0,5	0,1	0,01	0,001
10	Gidrosferada ichish uchun yaroqli bo'lgan suv miqdori qancha?	26190 ming km ³ ga teng	24190 ming km ³ ga teng	25200 ming km ³ ga teng	27190 ming km ³ ga teng
11	Er sayyorasida tarqalgan chuchuk suv zaxirasining necha foizini tashkil qiladi?	8 foizini	1.5 foizini	2 foizini	1,8 foizini
12	ichish uchun yaroqli bo'lgan suv zaxiralarining manbai-muzlik va qorliklar, yer osti suvlari, ko'l va daryo suvlari deb qabul qiladigan bo'lsak unda umumiy chuchuk suv zaxirasi necha million km ³ ga teng?	43 million km ³ ga etadi	46 million km ³ ga etadi	45 million km ³ ga etadi	48 million km ³ ga etadi
13	Dunyo okeanlaridan bir sutka davomida parlanadi?	880 km ³	875 km ³	855 km ³	865 km ³
14	Quriqlikning yillik suv resursi qancha?	47000 km ³ suv	49000 km ³ suv	57000 km ³ suv	67000 km ³ suv
15	CHuchuk suv zaxiralari gidrosferadagi umumiy suv xajmining necha foizini tashkil qiladi?	3,1 foizini	3,0 foizini	3,3 foizini	3,4 foizini
16	Muzliklardagi barcha muzlarni yer satxi	43 metrli	53 metrli	51 metrli	50 metrli

	bo'ylab joylashtirishni iloji bo'lganda edi necha metr qalinlikda muz qatlami xosil bo'lgan bo'lar edi?				
17	Gidrosferada chuchuk suvlarning necha foizi muzliklarda joylashgan?	40,1	51,1	50,1	60,1
18	Gidrosferada chuchuk suvlarning necha foizi ko'llar va suv omborlarida joylashgan?	0,3	0,4	0,2	0,6
19	Gidrosferada chuchuk suvlarning necha foizi yer osti suvlari tashkil qiladi?	46,4	45,4	48,4	49,4
20	Gidrosferada chuchuk suvlarning necha foizi tuproqdagi namlikka to'g'ri keladi?	0,005	0,08	0,05	0,0005
21	Gidrosferada chuchuk suvlarning necha foizi atmosfera namligiga to'g'ri keladi?	0,04	0,02	0,004	0,06
22	Gidrosferada chuchuk suvlarning necha foizini daryo suvlari tashkil qiladi?	0,001	0,011	0,01	0,013
23	Dunyo axolisining xar biriga bir yilda to'g'ri keladigan chuchuk suv miqdori qancha?	200-300 metr ³	300-400 metr ³	400-500 metr ³	100-200 metr ³
24	Er yuzasida tarqalgan chuchuk suv zaxiralari necha kishining extiyojini qondirish quvvatiga ega?	20-35 milliard	30-45 milliard	30-35 milliard	20-25 milliard
25	O'zbekistonda suvlardan foydalanish soxalari va ularda ishlatiladigan suvlar ulushi kommunal xo'jaliklarda, sanoatda va qishloq xo'jaligida necha foiz?	3, 12 va 85 %	3, 15 va 80 %	2, 13 va 85 %	3, 15 va 82 %
26	Dunyo bo'yicha xozirgi kunda nechadan ziyod chuchuklashtiruvchi stantsiyalar ishlaromqda?	900 dan ziyod	1000 dan ziyod	800 dan ziyod	700 dan ziyod
27	Bir tonna sunhiy tola ishlab chiqarish uchun qancha suv sarf qilinadi?	30-50 tonnagacha	20-30 tonnagacha	30-40 tonnagacha	40-50 tonnagacha
28	Yumshoq suvning qattiqligi necha mg.ekv/l bo'ladi?	2 dan kam	5 dan kam	6 dan kam	4 dan kam
29	O'rta qattiqlikda suvning qattiqligi necha mg.ekv/l bo'ladi?	6-10	2-6	4-8	5-9

30	Qattiq suvning qattiqligi necha mg.ekv/l bo'ladi?	8-12	8-16	10-14	9-13
31	Juda qattiq suvning qattiqligi necha mg.ekv/l bo'ladi?	16 dan katta	12 dan katta	10 dan katta	18 dan katta
32	Tabiiy suv manbalari asosiy necha guruxga bo'linadi?	3 guruxga	2 guruxga	5 guruxga	4 guruxga
33	Tabiiy suv manbalari-	Daryo va yuza suv manbalariga bo'linadi	Ochiq va artizian suv manbalariga bo'linadi	Ochiq va yer osti suv manbalariga bo'linadi	Ochiq va yuza buloq suv manbalariga bo'linadi
34	Er osti suv manbalari -	grunt va artizian, yer osti suvlari va buloqlar.	grunt, daryo va artizian suvlari va buloqlar.	grunt va artizian suvlari va quduq suvlariga.	grunt va artizian suvlari va buloqlar.
35	Yuza(ochiq) suv manbalari-	daryolar (tabiiy sharoitda yoki rostlangan) va ko'llar	Daryolar va ko'llar, buloqlar	Daryolar, artizian va ko'llar	Daryolar, dengiz, buloq va ko'llar
36	Suv tahminoti manbasi sifatida daryolar tanlanayotganda nimalar xisobga olinadi?	ularning satxi, uning sarfini, mavsumiy o'zgarishlarini xisobga olish kerak,	ularning krediti, uning sarfini, mavsumiy o'zgarishlarini xisobga olish kerak,	ularning debitini, uning sarfini, mavsumiy o'zgarishlarini xisobga olish kerak,	ularning debitori, uning sarfini, mavsumiy o'zgarishlarini xisobga olish kerak,
37	Suvning fizik xususiyatlariga nimalar kiradi?	uning xarorati, rangi, loykaligi, mazasi va uglerod miqdori kiradi.	uning xarorati, rangi, loykaligi, mazasi va xidi kiradi.	uning xarorati, rangi, loykaligi, mazasi, undagi koli indeks va xidi kiradi.	uning xarorati, rangi, loykaligi, mazasi undagi koli titri va xidi kiradi.
38	Suvning kimyoviy xususiyati nimalar bilan belgilanadi?	erigan magniy va kalg'tsiy moddalarining mavjud darajasi bilan	erigan alyuminiy va kimyoviy moddalarining mavjud darajasi bilan	erigan magniy moddalarining mavjud darajasi bilan	erigan kimyoviy moddalarining mavjud darajasi bilan
39	Suvning xidi va mazasi necha balli shkala bo'yicha o'lganadi?	6 balli shkala bo'yicha	5 balli shkala bo'yicha	10 balli shkala bo'yicha	3 balli shkala bo'yicha
40	Er osti suvining xarorati yil davomida necha gradus bo'ladi?	odatda 10-15°S	odatda 5-22°S	odatda 5-14°S	odatda 5-20°S
41	Quruq qoldiq qanday birlikda o'lganadi?	mg*1	mg/kg	mg/l	mm/l
42	Suvning qattiqligi qanday moddalar bilan belgilanadi?	kalg'tsiy va magniy tuzlari bilan	kaliy va magiy tuzlari bilan	kalg'tsiy va marganets tuzlari bilan	kalg'tsit va magnit tuzlari bilan
43	Suv qattiqligi qanday qattqliklarga bo'linadi?	karbonatli va bikarbonatsiz	karbonatli va karbonasiz	karbonatli va pemanganatli	bikarbonatli va karbonasiz
44	Suvning umumiy qattiqligi deganda nimani tushunasiz?	Karbonitli va karboxlorli qattqliklarning umumiy yig'indisi	Karboxromli va karbonatli qattqliklarning umumiy yig'indisi	Bikarbonatli va trikarbonatli qattqliklarning umumiy yig'indisi	Karbonatli va karbonatsiz qattqliklarning umumiy yig'indisi
45	pH=7 bo'lsa suv qanday xususiyatga ega bo'ladi?	neytral	kislotali	kuchli ishqoriy	ishqoriy
46	pH<7 bo'lsa suv qanday xususiyatga ega bo'ladi?	neytral	kislotali	kuchli ishqoriy	kuchli kislotali
47	pH>7 bo'lsa suv qanday xususiyatga ega bo'ladi?	kuchli ishqoriy	kuchli kislotali	kislotali	ishqoriy
48	Temir suvda qanday ko'rinishda uchraydi? suvda temir	III va IV-oksidi xolida	II va III-oksidi xolida	I va III-oksidi xolida	II va IV-oksidi xolida
49	Suvning koli-indeksi	bir gramm litr	bir litr suvdagi	bakteriya va viruslar	Bir mg/l suvdagi

	nima?	suvdagi bakteriya va viruslar soni	bakteriya va viruslar soni	bilan ifloslanishi	bakteriya va viruslar soni
50	Suvning koli-titri nima?	tadqiq qilinayotgan modda tarkibidagi ichak cho'pakchalari soni	tadqiq qilinayotgan modda tarkibidagi ichak qurtlari soni	tadqiq qilinayotgan modda tarkibidagi ichak tayoqchalari soni	tadqiq qilinayotgan moddaning bakteriya tayoqchalari soni
51	Ichimlik suv tarkibida zich cho'kma necha mg/l bo'lishi lozim?	1000 mg/l	10000 mg/l	9000 mg/l	100000 mg/l
52	Ichimlik suv tarkibida sulmfatlarning RECHMi	200 mg/l	300 mg/l	400 mg/l	500 mg/l
53	Ichimlik suv tarkibida temirning RECHM qancha?	0,2 mg/l	0,3 mg/l	0,4 mg/l	0,5 mg/l
54	Ichimlik suv tarkibida marganetsning RECHMi	0,1 mg/l	0,2 mg/l	0,3 mg/l	0,4 mg/l
55	Ichimlik suv tarkibida mis RECHMi -	0.1 mg/l	100 mg/l	10 mg/l	1 mg/l
56	Ichimlik suv tarkibida marganetsning Mn^{2+} RECHMi qancha?-	5 mg/l	0,1 mg/l	350 mg/l	0.002 mg/l
57	Ichimlik suv tarkibida rux Zn^{2+} moddasining RECHMi qancha?	350 mg/l	0.002 mg/l	5 mg/l	100 mg/l
58	Ichimlik suv tarkibida qo'rg'oshin moddasining RECHMi qancha?	0.0002 mg/l	0,1 mg/l	0.001 mg/l	0.002 mg/l
59	Ichimlik suv tarkibida xloridlarning Cl RECHMi qancha?	650 mg/l	550 mg/l	350 mg/l	450 mg/l
60	Qirg'oqli suv olish inshootlari qanday xollarda quriladi?	suv qirg'oqlari yetarli chuqurlikka ega bo'lmaganda	suv qirg'oqlari loyqalari ko'p bo'lganda	suv qirg'oqlari yetarli chuqurlikka ega bo'lganda	suv qirg'oqlari yetarli bo'lmaganda
61	Qirg'oq suv olish inshootlari kamchiligini ko'rsating?	oqayotgan osilma va suzuvchi moddalarning inshootga kirishi	oqayotgan iflos moddalarning inshootga kirishi	oqayotgan zang va iflos moddalarning ko'p bo'lishi	oqayotgan iflos sularning inshootga kirishi
62	O'zandan suv oluvchi inshootlar ishonchlik darajasi bo'yicha nechanchi o'rinda turadi?	bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi	bo'yicha to'rtinchi o'rinda turadi	bo'yicha birinchi o'rinda turadi	bo'yicha uchinchi o'rinda turadi
63	O'zanli suv oluvchi inshootlar qanday xollarda quriladi?	daryo o'zani chuqur, qirg'oqlari keng, qirg'oq bo'yida chuqurligi yetarli bo'lganda	daryo o'zani keng, qirg'oqlari loyqa, qirg'oq bo'yida chuqurligi yetarli bo'lmaganda	daryo o'zani tor, qirg'oqlari yassi, qirg'oq bo'yida chuqurligi yetarli bo'lganda	daryo o'zani keng, qirg'oqlari yassi, qirg'oq bo'yida chuqurligi yetarli bo'lganda
64	Suv ta'minoti manbaini tanlashda qaysi xujjat asosida tanlanadi?	OST 18.13.03-77	GOST 18.13.03-84	GOST 17.13.03-77	GOS 17.13.03-77
65	Kovshli suv inshootlari qaysi xollarda loyixalanadi?	loyqaligi tiniq va muzlash extimolligi yuqori bo'lganda	loyqaligi yuqori va muzlash extimolligi yuqori bo'lganda	loyqaligi past va muzlamaydigan qirg'oqlarda	loyqaligi yuqori va ozayish extimolligi yuqori bo'lganda
66	Kovshli suv inshootlari -	maxsus ariqli xolidagi kanallar	damba xolidagi qurilgan kanallar	maxsus kanallarda quriladi	maxsus damba xolidagi qurilgan kanallar
67	Kovshli suv olish inshootlari qancha	4-8 m/sek	2-4 m/sek	3-6 m/sek	3-8 m/sek

	suv olishga mo'ljallanadi?				
68	Quduqdardan suv olinmagan vaqtdagi suv satxi nima deb ataladi?	statik satx deyiladi	dinamik satx deyiladi	solishtirma satx deyiladi	debitor satx deyiladi
69	Quduqdan to'xtovsiz suv olinishi natijasida quduqdagi suv ma'lum vaqtdan so'ng muayyan gorizontni egallaydi, bu suvning qanday satxi deyiladi.	statik satx deyiladi	dinamik satxi deyiladi	solishtirma satx deyiladi	debitor satx deyiladi
70	Dinamik satxi bir marta 'asayganda olinishi mumkin bo'lgan suvning miqdoriga nima deyiladi?	quduqning statik debiti deyiladi	quduqning sdi'ressiya debiti deyiladi	quduqning solishtirma debiti deyiladi	quduqning solishtirma debiti zaxirasi miqdori
71	De'ressiya chizig'i bilan chegaralangan mintaqa nima deyiladi?	solistirma voronkasi	debidi voronkasi	defferensiya voronkasi	de'ressiya voronkasi
72	Yer osti suvlaridan suv oluvchi inshootlarni amalda qanday turlarga bo'linadi?	quvurli quduqlar, shaxtali quduqlar, gorizontali suv eguvchilar, buloq suvlarini yiguvchi ka'tajlar	quvurli chuqurlar, shaxtali quduqlar, gorizontali suv eguvchilar, buloq suvlarini yiguvchi ka'tajlar	quvurli quduqlar, shaxtali quvurlar, gorizontali suv yig'uvchilar, buloq suvlarini yiguvchi ka'tajlar	chqurli quduqlar, shaxtali quduqlar, gorizontali suv eguvchilar, buloq suvlarini yiguvchi ka'tajlar
73	Kaptaj- so'zini ma'nosi nima?	Tutmoq va ushlamoq	ushlamoq va ushladim	ilmoq va qalmoq	ushlatmoq va ushlatmoq
74	Kaptaj qurilmalari qanday suvlarni yig'ishda ishlatiladi?	chuchuk, termik suvlarni	chumchuk, termal suvlarni	chuchuk, termal suvlarni	dengiz, termal suvlarni
75	Kaptaj qurilmalarining debiti deb nimaga aytiladi?	1 sutka davomida olingan m ³ suv miqdoriga	1 minut davomida olingan m ³ suv miqdoriga	1 kecha kunduz davomida olingan m ³ suv miqdoriga	1 soat davomida olingan m ³ suv miqdoriga
76	Xlor va fenol moddalarning minimal necha mg/l bo'lganda inson sezadi?	0,04 mg/l	0,004 mg/l	0,000004 mg/l	0.0004 mg/l
77	Suvda erigan tuzlar to'g'risida aniq malumot olish uchun qanday kimyo analiz usullaridan foydalaniladi?	suvdagi mavjud anionlar	suvdagi mavjud kation va anionlar	suvdagi mavjud moddalar va anionlar	suvdagi mavjud katod va anodlar
78	Suvning pH ko'rsatkichi qanday aniqlanadi?	psixrometr	pH metr orqali	potentsiometrlar	monometr
79	pH ko'rsatkichlar dala sharoitlarida qanday aniqlanadi?	infikatorlar	indinfitsikatorlarda	idintikatorlarda	indikatorlar
80	Suvning kislotaliligi qanday indikator yordamida aniqlanadi?	metiloranj	metilg's'irti	metanolglikolen	metilor
81	Umumiy ishqoriyligi metiloranj indikatoridan tashqari qanday vosita orqali baholanishi mumkin?	fenilftormed vositasida	fenolnaftalin vositasida	ftorftalein vositasida	fenilftalein vositasida

82	Cho'ktirish jarayonlari qaysi qurilmalarda amalga oshiriladi?	Flotator va flokulyatorlarda	Kaogulyator va flotator	Tindirgich va qumtutgichlarda	Gorizontal tindirgichlarda
83	Koagulyatsiya jarayonida nimalar hosil qilinadi?	'oliakrilamid, aktiv silikat kislota va b	Flokulalar xosil qilinadi	aktiv silikat kislota va b	Tuzalar va ishqorlar
84	Koagulyantlarni kimyoviy formulasini ko'rsating?	$Al_2(SO_4)_3$, $Fe_2(SO_4)_3$	$Al_2(SO_4)_3$, $Fe_2(SO_4)_3$	$Fe_2(SO_4)_3$, $Fe_2(SO_4)_3$	$Al_2(SO_4)_3$, $Fe_2(CaO_4)_3$
85	Koagulyatsiya samaradorligini oshirish uchun qanday flokulyantlar ishlatiladi?	Flokulalar xosil qilinadi	aktiv silikat kislota va b	'oliakrilamid, aktiv silikat kislota va b	aktiv kristall kislota va b
86	Koagulyatsiya jarayonida nima hosil bo'ladi?	Ushoqlar	Iviqlar	'ag'alar	flokullar
87	Koagulyatsiya samaradorligini oshirish uchun qanday moddalar ishlatiladi?	kislotalar	ishqorlar	tuzalar	flokulyantlar
88	Koagulyatsiya jarayonida qanday moddalar hosil bo'ladi?	alyuminiy va temir tuzlari	alyuminiy va temir gidroksidlari	alyuminiy va temir oksidlari	alyuminiy va temir gidratlari
89	Suvni oxaklash usuli qanday ishqoriyligini kamaytirish uchun qo'llaniladi? .	karbonatli	gidrokarbonatli	gidrooksidli	gidrosilikatli
90	Suvni oxaklashda qanday birikmalar kamayadi?	qattiqligi, sho'rlanishi, oksidlanishi	qattiqligi, sho'rlanishi, dag'al dis'ers, temirning oksidlanishi	qattiqligi, sho'rlanishi, dag'al dis'ers, temir birikmalari va silikat kislotalar	qattiqligi, sho'r, rangi, xidi, dag'al dis'ers, temir birikmalari va silikat kislotalar
91	So'ndirilgan oxak kimyoviy formulasini ko'rsating?	$Ca(OH)_2$	$Ca(CO)_2$	$Ca(ClH)_2$	$Ca(ON)_2$
92	Silikat kislota yo'qotilish samaradorligini oshirish suvga qanday modda qo'shiladi?	kaustik soda $MgSO$	kaustik magnezit MgO	kaustik magniy MgO	kauchukli magnezit MgO
93	Suvga qattqlik beruvchi moddalarni aniqlang?	kaliy va magnezit birikmalari	kalg'tsit va magmaniy birikmalari	kaliy va marganiy birikmalari	kalg'tsiy va magniy birikmalari
94	Suvni yumshatish uchun suvdagi qaysi moddalar kamaytiriladi?	kaliy va magnezit birikmalari	kalg'tsiy va magniy birikmalari	kaliy va marganiy birikmalari	kalg'tsit va magmaniy birikmalari
95	doimiy qattqlikni bartaraf etish uchun suvga qanday modda bilan ishlov beriladi?	kaliynirlangan oxak bilan	magniyli soda bilan	Karbonatli soda bilan	kalg'tsinirlangan soda bilan
96	Ca^{2+} va Mg^{2+} ionlarini to'la cho'ktirish qanday modda ishlatiladi?	trinatriyxlol	trinatriyfosfat	trinatriyfosfor	natriyfosfat
97	Xozirgi vaqtda suvni yumshatish, tuzsizlantirish va kremniysizlantirish uchun qanday usullar qo'llanilmoqda?	kumush ko'zgu bog'lanish	ionli bog'lanish	ion almashinish	qaytarilish
98	Kationilar –qanday	suvda to'liq	suvda eriydigan	suvda eritma xolidagi	suvda erimaydigan

	moddalar?	erimaydigan moddalar	moddalar	moddalar	moddalar
99	Anionitlar – qaynday moddalar?	qattiq suvda erimaydigan kationlarning ionlari tuzlaridir	qattiq suvda erimaydigan kationlarning asoslari yoki tuzlaridir	qattiq suvda erimaydigan kationitlarning kislotalaridir	qattiq suvda erimaydigan kationlarning asoslari yoki ishqorlaridir
100	Suvda kimyoviy tahsirlashadigan gazlarni ko'rsating?	(NH ₃ , CHO ₂ , HCl ₂)	(NOH ₃ , CaO ₂ , Cl ₂)	(NH ₃ , CO ₂ , NaCl ₂)	(NH ₃ , CO ₂ , Cl ₂)
101	Suv bilan kimyoviy tahsirlashmaydigan gazlarni ko'rsating.	(N ₂ , NaO ₂ , SNaN ₄)	(N ₂ , O ₂ , SN ₄)	(N ₂ , O ₂ , SN ₄)	(N ₂ , OH ₂ , SN ₄)
102	Suvni tarkibidagi korrozion aktiv gazlarni ko'rsating.	O ₂ , CaO ₂ , NH ₃ , Cl ₂ , H ₂ S	SoO ₂ , CO ₂ , NaH ₃ , Cl ₂ , H ₂ S	O ₂ , CO ₂ , NH ₃ , Cl ₂ , H ₂ SO ₄	O ₂ , CO ₂ , NH ₃ , Cl ₂ , H ₂ S
103	Suvdagi inert gazlarni ko'rsating. inert	(N ₂ , O ₂ , CH ₄)	(NS ₂ , O ₂ , CH ₄)	(N ₂ , O ₂ , C ₂ OH ₄)	(N ₂ , CaO ₂ , CH ₄)
104	Erigan gazlarning suvdan yo'qotishning asosiy usuli qaysi usul?	oksidlanish	desorbatsiya	desorbtsiya	dezodoratsiya
105	Suvda kasallik qo'zg'atuvchi mikroorganizmlar va viruslarning yo'qotish uchun qanday moddalar qo'llaniladi?	suyuq yoki gaz xolatdagi nitrit va ozondan foydalaniladi	suyuq yoki gaz xolatdagi SO ₂ va ozondan foydalaniladi	suyuq yoki gaz xolatdagi Cl ₂ va ozotdan foydalaniladi	suyuq yoki gaz xolatdagi Cl ₂ va ozondan foydalaniladi
106	Suvni xlorlash jarayoni qanday qurilmalarda amalga oshiriladi?	bosimli vvakkumli xloratorlarda	bosimsiz vvakkumli xloratorlarda	bosimli aralashtirgichlarda	bosimli vvakkumli ftoratorlarda
107	Suvni ozonlash suvni yana qanday zararliliklarni kamaytiradi?	ranglashtiradi, tahm va xidlar qo'shimcha qiladi.	Suvni ishqorlardan bartaraf etadi	rangsizlantiradi, tahm va xidlarni bartaraf qiladi	suvni rangsizlantirib, kislotaga to'yintiradi
108	Ozonlash bilan oqova suvni qanday moddalardan tozalash mumkin?	kremniy, fenoldan, neft, mahsulotlaridan, karbonat angidrid, mishg'yak, S'AM, tsianidlar,uglevodoro dlardan	neft, mahsulotlaridan, kremniyvodorod, mishik, SAA, tsianidlar,uglevodorodl ar va 'estitsidlardan	fenoldan, neftg' mahsulotlaridan, serovodorod, mishg'yak, SAM, tsianidlar va 'H dan	fenoldan, neftg' mahsulotlaridan, serovodorod, mishg'yak, SAM, tsianidlar,uglevodoro dlar va 'estitsidlardan
109	Ozon qanday rangdagi modda?	och kulrang rangli gaz	och binafsha rangli gaz	och ko'kimtir rangli gaz	to'q binafsha rangli gaz
110	Toza ozon qanday modda?	xavfli zaxarli	xavfsiz 'ortlovchi	'ortlovchi va yonuvchi	xavfli 'ortlovchi
111	Ishchi zona havosidagi maksimal RECHMi qancha?	0,0001 mg/m ³	0,1 mg/m ³	0,001 mg/m ³	0,0011 mg/m ³
112	Xidi bilan ta'mi suvning qanday ko'rsatkichlariga kiritiladi?	Kimyoviy	Orgonolitik ko'rsatkichlariga	organole'tik ko'rsatkichlariga	Anorgonolitik ko'rsatkichlariga
113	Suvning xidi qanday baxolanadi?	Uch balli shkala bo'yicha	besht balli shkala bo'yicha	Ikki balli shkala bo'yicha	olti balli shkala bo'yicha
114	Ichimlik-maishiy suvlarning xidi necha balldan oshmasligi kerak?	4-6 balldan	3-6 balldan	10 balldan	3-4 balldan
115	Toza ochiq suv havzalarda erigan kislorodning miqdori nechaga teng?	8-9 mg/l ga teng	18-19 mg/l ga teng	0,8-0,9 mg/l ga teng	1,8-1,9 mg/l ga teng
116	Suvga xid beruvchi moddani ko'rsating?	H ₂ HS	NH ₂ S	H ₂ S	H ₂ SO ₄

117	Sanitar-kimyoviy tahlil qanday turlarga bo'linadi?	to'liq qisqartirilgan yoki	to'liq qisqartirilgan yoki	to'liq qisqartirilgan yoki	to'liq qisqartirilgan yoki
118	Suvni rangni yo'qotish uchun nima bilan sorbsiyalanadi?	kurun bilan	koks bilan	ko'mir bilan	gumin bilan
119	Boshlang'ich xlorlashda xlor qancha miqdorida qo'shiladi?	3-5 mg/l	5-10 mg/l	13-15 mg/l	0.3-0.5 mg/l
120	Boshlang'ich xlorlash natijasida suvning rangliligi necha % ga kamayadi?	10-20 %	20-30 %	30-50 %	50-70 %
121	Suvni xidini yo'qotishda aktivlangan ko'mirdan foydalanilganda qancha miqdorda ko'mir qo'shiladi?	10-100 mg/l	100-1000 mg/l	0.1-0.3 mg/l	1-10 mg/l
122	Ichimlik suvining rangi necha 20 gradusdan yuqori bo'lmasligi kerak?	25 gradusdan	20 gradusdan	30 gradusdan	40 gradusdan
123	UzDSt 950:2011 bo'yicha ichimlik suvdagi erimagan moddalar miqdori qanchadan ko'ra bo'lmasligi kerak?	1,5 mg/l dan	2,5 mg/l dan	0,5 mg/l dan	3,5 mg/l dan

121	Suvni xidini yo'qotishda aktivlangan ko'mirdan foydalanilganda qancha miqdorda ko'mir qo'shiladi?	10-100 mg/l	100-1000 mg/l	0.1-0.3 mg/l	1-10 mg/l
122	UzDSt 950:2011 bo'yicha ichimlik suvdagi erimagan moddalar miqdori qanchadan ko'ra bo'lmasligi kerak?	1,5 mg/l dan	2,5 mg/l dan	0,5 mg/l dan	3,5 mg/l dan

G L O S S A R I

Suv tabiatda sodir bo'ladigan juda ko'p jarayonlarda va shuning bilan birga insoniyatning hayotini tahminlashda asosiy hal qiluvchi muhim ahamiyat kasb etadi. Sanoatda suvni xomashyo va energiya manbai sifatida, sovituvchi yoki isituvchi agent, erituvchi, ekstragent sifatida, xom ashyolar va materiallarni tashuvchi transport vositasi va boshqa qator ehtiyojlar uchun ishlatiladi.

Tabiiy suv – bu hech qanday antropogen ta'sir ishtirokisiz tabiiy jarayonlar natijasida sifat va miqdoriy jihatdan shakllangan suvdur. Uning sifat ko'rsatkichlari tabiiy ko'p yillik o'rtalashtirilgan mikdorda bo'ladi. Suvlar minerallashish darajasiga qarab (g/l da); chuchuk (tuzlarning umumiy miqdori < 1), sho'rroq (1-10), sho'r (10-50) va rassollar (> 50). O'z navbatida chuchuk suvlar kam mineral aralashmali (200 mg/l gacha), o'rtacha minerallashgan (200-500 mg/l) va yuqori minerallashgan guruhlarga bo'linadi. Tarkibida miqdor jihatdan anionlar kationlarga nisbatan ko'p bo'lganligi sababli barcha suvlar gidrokarbonatli, sulfatli va xloridli suvlarga bo'linadi.

Suvning fizik xossalari. **Toza suvning zichligi 15°S va atmosfera bosimida 999 kg/m^3 ga tengdir. Suv tarkibidagi aralashmaning kontsentratsiya ortishi bilan uning zichligi ham uzgarib boradi. Tuzlarning kontsentratsiyasi 35 kg/m^3 bo'lgan dengiz suvining o'rtacha zichligi 0°S da 1028 kg/m^3 ga ega. Tuzlarning miqdori 1 kg/m^3 ga o'zgarsa zichlik $0,8 \text{ kg/m}^3$ ga o'zgaradi. Harorat ortishi bilan suvning qovushqoqligi μ quyidagi holatda kamayib boradi:**

T, $^{\circ}\text{S}$	0	5	10	15	20	25	30	35
μ , mPa·s	1,797	1,523	1,301	1,138	1,007	0,895	0,800	0,723

Suvning elektr xossalari. **Suv – kuchsiz elektr o'tkazgichdir: 18°S da solishtirma elektr o'tkazuvchanligi $4,9 \text{ Om/m}$ ($4,41 \cdot 10^{-8} \text{ Om}\cdot\text{sm}$); dielektrik doimiysi 80 ga teng. Suvda eriydigan tuzlarning bo'lishi uning elektr o'tkazuvchanligini oshiradi. Suvning bu xossasi haroratning o'zgarishiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'ladi.**

Suvning optik xossasi. Suvning tiniqligi va loyqaligi, uning tarkibidagi muallaq holatdagi mexanik iflosliklarning miqdoriga bog'liq. Suvdagi iflosliklar miqdori

qancha ko'p bo'lsa, uning loyqalik darajasi shuncha ortib boradi va bunga mos ravishda tiniqlik kamayib boradi. Tiniqlik o'lchanayotgan suvning ichiga kirib boruvchi nur yo'lining uzunligi bilan aniqlanadi nurning to'ltin uzunligiga bog'liq bo'ladi. Ulg'trabinafsha nurlar suvdan oson o'tadi, infraqizil nurlar esa qiyin, yahni yomon o'tadi. Tiniqlik ko'rsatkichi suvdagi kir aralashmalarning miqdorini aniqlashda va suvning sifatini baholashda qo'llaniladi.

Suvning maqsadga ko'ra sinflanishi. Sanoatda qo'llaniladigan suvlar sovituvchi, texnologik va energetik suvlarga bo'linadi.

Sovituvchi suvlar – suv juda kup hollarda issiqlik almashinuvchi qurilmalardagi suyuq va gaz xolatidagi mahsulotlarni sovitish uchun qo'llanilaladi. Bu jarayonda suv mahsulot oqimi bilan to'qnashgani tufayli ifloslanmaydi, faqatgina isiydi. Sanoatda suvning 65-80% i sovitish uchun sarflanadi. Yirik kimyoviy korxonalarda sovituvchi suvga ehtiyoj yiliga 440 mln. m³ ni tashkil etadi. Kimyoviy sanoat korxonalarida sovitish tizimlariga birlashtirilgan suvning umumiy yig'indisi 20 mlrd. m³ /y ni tashkil etadi.

Texnologik suvlar. Texnologik jarayonlar uchun qo'llaniladigan suvning sifati aylanma tizimlarda mavjud bo'lgan suvning sifatidan yuqori bo'lishi lozim. Suvning sifati deganda, uning sanoat korxonasida qo'llanilishi mumkinligini tahminlovchi fizik, kimyoviy, biologik va bakteriologik ko'rsatkichlari majmuasi tushiniladi.

Suv resurslari Qurrai zaminimizda tabiiy suvning umumiy hajmi 1386 mln.km³ ni tashkil qilinadi. Ko'rsatilgan hajmning 97,5 % dan ko'prog'ini esa sho'r, yahni dengiz va okean suvlari tashkil etadi. Ammo aksariyat qolgan 2,3 % ga yaqin bo'lgan chuchuk suvning asosiy qismi inson uchun ishlatishga imkoniyat yo'q darajada, chunki u asosiy qutb zonasidagi muzliklarda va yer ostidagi suvli qatlamlarda joylashgan.

Suv ta'minoti – bu suv manbalari, nasos qurilmalari, suv tozalagich inshootlar, ichimlik suvini iste'molchilarga yetkazib beruvchi tarmoqlar va boshqa ko'pgina moslama, qurilma, idishlardan iborat tizimdir.

Xo'jalik – ichimlik suvi - ichimlik ehtiyoji uchun sarflanadigan suvlar (ichish, ovqat tayyorlash, yuvinish, kir yuvish, turar - joylarning tozaligini saqlash, shahar va

aholi turar - joylarining obodonchiligini saqlash, ko'chalarga suv sepish, daraxt va gulzorlarni sug'orish, favvoralar uchun suv va h.k.).

Suvning sifatiga qo'yiladigan talablar iste'molchining suvni ishlatish maqsadiga ko'ra quyidagicha bo'ladi. Misol uchun, aholi ichishi uchun sarflanadigan suvlar, avvalambor sanitariya - gigiena talablariga to'la javob berishi kerak. Suvda insonlar sog'ligiga zarar keltiradigan, kasallik tarqatuvchi bakteriyalar bo'lmasligi, tiniq va hidsiz hamda ta'mi yaxshi bo'lishi kerak.

Sanoat korxonalarida texnologik jarayon uchun sarflanadigan suv (bug' hosil qilish, sovitish, mahsulotlarni yuvish, turli mahsulotlarga ishlov berish va boshqalar).

Yong'inni o'chirish uchun sarflanadigan suv.

Suv ta'minoti tizimining o'z ehtiyojlari uchun sarflanadigan suv ham sarflanadi bular - filg'rlarni yuvish, suv tarmoqlari va suv tortib oluvchi inshootlarni yuvish va boshqalar

Suv iste'moli me'yori-vaqt birligida yoki mahsulot birligida sarflanadigan toza suv miqdoriga aytiladi.

Xo'jalik - ichimlik suv iste'moli me'yori QMvaQ 2.04.02-96 bo'yicha kecha kunduz davomida bir kishi tomonidan xo'jalik - maishiy uchun o'rtacha suv iste'moliga klimatik sharoitlarga va turar - joy, yashash sharoitiga (jihozlanganlik darajasiga) qarab belgilanadi.

Ichki suv uzatish va oqova suv tarmog'i bilan ta'minlangan, joyida suv isitiladigan vannali turar - joy binolari uchun 160-230 l/k-k;

Ichki suv uzatish va oqova suv tarmogi bilan ta'minlangan, markazlashtirilgan issiq suv ta'minoti tizimlari mavjud turar - joy binolari uchun 230-350 l/k-k.

Ko'cha suv uzatish kolonnalari bilan ta'minlangan turar - joy binolari uchun 30 - 50 l/k-k.

Solishtirma suv iste'moli-bir kishining xo'jalik - ichimlik ehtiyoji uchun sarflaydigan suv miqdori bilan birga ma'muriy - jamoat binolarida iste'mol qiladigan suvlarni ham o'z ichiga oladi.

Suv ta'minoti tizimi ishga tushirilganda, u iste'molchining talabini qondirishi kerak.

Ichimlik suvi manbaalari - yer osti va yer usti manbaalariga bo'linadi. Yer osti manbaalari yer usti manbaalaridan va yomg'ir, qor suvlarni sizishidan hosil bo'ladi. Ular bosimli (artezian) va bosimsiz bo'lishi mumkin.

Bosimsiz yer osti suvlari - ozod yuzaga ega bo'lib, bular sizot suvlardir. Ularni ishlatishdan oldin tozalash zarurdir.

Bosimli (artezan) suvlari - suv uzatuvchi gorizontni to'lik egallagan bo'lib, sifati talab doirasida bo'lib, ularni zararsizlantirib iste'molchiga uzatish mumkin.

Ichimlik suvi manbaalariga qo'yiladigan sanitar gigienik talablari-Suv ta'minoti uchun tanlangan manbaa suvi tarkibida zararli va keraksiz moddalar bo'lmasligi shart. Manbaa xolati doimiy kuzatib boriladi. Ichimlik suvi tarkibi quyidagicha me'yorlanadi

Statik satx-quduqdardan suv olinmagan vaqtdagi suv satxi.

Bosimsiz yer osti suvlarida statik satxi-suv qatlamidagi suv yuzasining satxiga to'g'ri keladi.

Bosimli yer osti suvlarida quduqdagi statik satxi-shu joydagi suv qatlami suv satxidan yuqori bo'ladi, chunki suv suvli qatlamda bosim ostida bo'ladi.

Suvning dinamik satxi-quduqdan to'xtovsiz suv olinishi natijasida quduqdagi suvning statik satxi pasaya boradi va ma'lum vaqtdan so'ng muayyan gorizontni egallagan sathdir. Quduqdan suv keyinchalik tez olinsa, dinamik satxi shunchalik pastda joylashadi.

Quduqning solishtirma debiti-dinamik satxi bir marta pasayganda olinishi mumkin bo'lgan suvning miqdoriga aytiladi

Depressiya chizigi-quduqning pasayish **chizigi**-suvning statik satxi-suv olinganda quduqning barcha tomonlaridan ma'lum masofagacha pasayadi. Quduq yuzasidagi suvning pasayishi eng yuqori bo'ladi, undan uzoqlashgan sari suv pasayishi kamayib boradi va ma'lum bir masofaga yetganda suv satxining pasayishi umuman to'xtashi

Depressiya voronkasi - depressiya chizig'i bilan chegaralangan mintaq

Dipressiya voronkasining radiusi R quduqning ta'sir radiusi deyiladi.

Yer osti suvlaridan suv oluvchi inshootlari-quvurli quduqlar, shaxtali quduqlar, gorizontal suv eguvchilar, buloq suvlarini yiguvchi inshootlar.

Suv oluvchi inshootlarning turi tanlaganda, yer osti suvining joylashish chukurligi, suvli katlamining kuvvati, suv miqdori va joylashish sharoiti inobatga olinadi

Quvurli quduqlar yer qariga tik tsilindrik quduqdar p'armalash orkali kuriladi. Ko'pincha quduq devorining uzunligi bo'ylab, po'lat, azbestotsement, polietilen quvurlar yordamida maxdamlanadi va ular yordamida quvurli quduq xosil qiladilar.

Quvurli quduqdarning konstruksiyasi-ma'lum darajada yer ostida joylashgan suv chuqurligi, parmalanadigan qatlam tuzilishi va parmalash ishlari ta'sir qiladi

Quvurli quduqdar suv oluvchi qism (filg'tr), suv ko'taruvchi qism va quvurlar og'zidan iborat.

Gorizontal suv yiguvchi inshootlar suvli qatlamlar unchalik chuqur joylashmagan va suv quvvati unchalik katta bo'lmaganda quriladi (5-7m.).

Ochiq suv manbalaridan suv oluvchi inshootlar amalda quyidagi ko'rsatgichlari bo'yicha turlarga bo'linadi: suv manbalarining turlariga ko'ra, daryoli, ko'lli, suv omborli, dengizli; foydalanishi bo'yicha vaqtinchalik, doimiy; extiyoji bo'yicha xo'jlik-ichimlik, texnik, suvorish va x.z.; joyida turishi bo'yicha bir joyda turadigan, suzuvchi; quvvati bo'yicha kichik (sek.1 m^2 suv oluvchi), o'rtacha ($1-6 \text{ m}^2/\text{sek.}$), yirik ($6 \text{ m}^3/\text{sek.}$ dan yuqori); ish'ootning joylashishi bo'yicha qirgoqli, o'zanli, kovushli; tuzilishi va texnologiyasi bo'yicha birlashtirilgan, aloxida va kovushli; ishonchlik darajasiga ko'ra QMQ talablariga javob beradigan.

Ochiq suv manbalaridan suv oluvchi inshootlarning turi tanlanganda-suv manbaining qirfok, tuzilishi, suv olish joyidagi suv manbayining tubi tuzilishi, suv satxining o'zgarish am'litudasi, yaxlash va yaxlamasligi va x.z. inobatga olinadi.

Qirg'oq suv olish inshootlari ishonchlilik darajasiga ko'ra birinchi o'rinda turadi. Bunday inshootlardan suv qirg'oqlari yetarli chuqurlik, qirfok, qiyaligi katta va qirg'oq, xarsangsiz tu'roqdan iborat bo'lganda qo'llanilgani mahkul. Ularning kamchiligi shundan iboratki, qirg'oq, bo'ylab suvda oqayotgan iflos moddalarning inshootga kirishi ehtimoli yuqori.

Qirg'oq suv olish inshootlari qirg'oqdarda daryo tomonga biroz turtib chiqqan xolda quriladi.

O'zandan suv oluvchi inshootlar ishonchlik darajasi bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi. Bu sira inshootlar daryo o'zani keng, qirg'oqlari yassi, qirg'oq bo'yida chuqurligi yetarli va daryo qirg'oqdarining suv bilan yuvilish extimoli yuqori bo'lganda quriladi.

Kovshli suv oluvchilar suv olishning ishonchlilik darajasi birinchi uringa qo'yilganda, kam miqdorda suv olinganda (3-6 m/sek) qo'llaniladi. Bunday inshootlar ko'pincha yax va qirov xosil bo'ladigan va suv tarkibida loyqalar ko'p bo'ladigan daryolarda suv olish uchun ishlatiladi.

Ozod yoki zaruriy bosim Suv ta'minoti sistemalaridan tashqari sistemada bosim suvni eng yuqori va eng uzoq masofaga yetkazib berishni ta'minlashi shart shu ta'minlanishi zarur bo'lgan bosim.

Ichki suv uzatish va oqova suv tarmog'i bilan ta'minlangan, joyida suv isitiladigan vannali turar - joy binolari uchun 160-230 l/k-k;

Ichki suv uzatish va oqova suv tarmogi bilan ta'minlangan, markazlashtirilgan issiq suv ta'minoti tizimlari mavjud turar - joy binolari uchun 230-350 l/k-k.

Ko'cha suv uzatish kolonnalari bilan ta'minlangan turar - joy binolari uchun 30 - 50 l/k-k.

Solishtirma suv iste'moli-bir kishining xo'jalik - ichimlik ehtiyoji uchun sarflaydigan suv miqdori bilan birga ma'muriy - jamoat binolarida iste'mol qiladigan suvlarni ham o'z ichiga oladi.

Suv ta'minoti tizimi ishga tushirilganda, u iste'molchining talabini qondirishi kerak.

Aholining ichadigan maishiy-xo'jalik ehtiyoji uchun sarflanadigan suvlar (ichish, ovkat tayyorlash, yuvinish, kir yuvish, turarjoylar tozaligini saqlash, shahar va aholi turarjoylari obodonchiligini saklash, ko'chalarga suv sepish, ko'katlarni sug'orish. favvoralar uchun suv va h.z.,

Sanoat korhonalarida texnologik jarayon uchun sarflanadigan suv (bo'g'

hosil qilish, sovitish, mahsulotlarni yuvish, turli mahsulotlarga ishlov berish va boshqalar).

Yong'inni o'chirish uchun sarflanadigan suv.

Suvning sifatiga qo'yiladigan talablar iste'molchining suvni ishlatish maqsadiga ko'ra turlicha bo'ladi. Misol uchun, aholi ichishi uchun sarflanadigan suvlar avvalambor sanitariya-gigiena talablariga to'la javob berishi kerak. Suvda insonlar sog'ligiga zarar keltirmaydigan kasallik tarqatuvchi bakteriyalar bo'lmasligi, tiniq va hidsiz xamda ta'mi yaxshi bo'lishi kerak.

Aholi turar joylarida aholining soni qancha ko'p bo'lsa, sarflanadigan suv miqdori ham shuncha ko'p bo'ladi.

Bir kun davomida bir odam tomonidan maishiy-xo'jalik uchun o'rtacha suv iste'moliga **solishtirma suv iste'mol me'yori** deyiladi.

Solishtirma suv iste'moli bir odam maishiy-xo'jalik ehtiyoji uchun uyida sarflaydigan suv miqdori bilan birga ma'muriy-jamoat binolarida iste'mol qiladigan suvlarni ham o'z ichiga oladi. Ular shahar tumanlaridagi turar joylarning obodonligi darajasiga bog'liq, obodonlashtirish darajasi yuqori bo'lsa, solishtirma suv iste'moli ham yuqori bo'ladi.

Ma'lum bir miqdor suv joyning iqlim sharoitiga ham bog'liq bo'ladi. Jazirama issiq iqlimli vaqtda suv iste'moli sovuq iqlimli sharoitga nisbatan ko'p sarflanadi. SHu bilan birga suv miqdoriga turar joylarda ko'p qavatli binolarning joylashganligi ham ta'sir qiladi.

Aholi turar joylarida suv ta'minoti tizimini loyihalaganda bir odam ichimlik-xo'jalik ehtiyoji uchun o'rtacha kundalik solishtirma suv sarfi QMQ-2.04.02.97 talabiga binoan olinadi

. Qurilgan imoratlar ichki suv va kanalizatsiya bilan jihozlangan: shu bilan birga markazlashtirilgan issiq suv bilan ta'minlangan - 230-290

vannali va mahalliy suv isitish qurilmasi bilan jixozlangan- 150-200

vannasiz xovli suv olish qurilmasi bilan jihozlantirilgan kanalizatsiyasiz-
95-120

ko'chada joylashtirilgan suv taqsimlash qurilmasidan foyda-lanishda-
40-50

Suv ta'minoti tizimining klassifikatsiyalari

1. Ob'ekt turiga qarab (iste'molchi): Shahar, posyolka, sanoat, qishloq ho'jaligi, temir yo'l va h.k.o suv ta'minoti tizimlari.
2. Vazifasiga qarab: Ichimlik-ho'jalik, ishlab chiqarish, yong'inga qarshi suv ta'minoti tizimlari.
3. Suvni uzatish usuliga qarab: Bosimli va bosimsiz suv ta'minoti tizimlari.
4. Suv manbalari turiga qarab:
5. Er ustki manbalaridan (ko'l, daryo, kanal, suv ombori, dengiz) suv oluvchi va yer ostki manbalaridan suv oluvchi suv ta'minoti tizimlari.

Turar-joy suv ta'minoti tizimi sxemalari avvalombor manbaaga bog'liqdir. Ko'p xollarda daryo suvlaridan foydalaniladigan sxemalar uchraydi. Ushbu sxemaga asosan ichimlik uchun suv daryodan suv qabul qilib oluvchi inshootlarga kelib quyiladi.

Suv oluvchi inshootlar, bu inshootlar yordamida suv tabiiy suv manbalaridan olinadi;

Suvni yuqoriga uzatuvchi inshootlar, nasos bekatlari. Suvni tozalash bekatlariga va suv iste'molchilarga uzatuvchi qurilmalar;

Suvni tozalovchi inshootlar;

Suvni uzatuvchi qurilmalar va suv tarmoqlari. Ular suvni iste'molchilar talab qilgan joyga yetkazib berish uchun xizmat qiladi.

Minoralar va rezervuarlar. Ular suv ta'minoti tizimda suvni boshqarish va zahirada saqlash uchun xizmat qiladi.

Er usti manbaalaridan foydalanuvchi sxemalar tarkibi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Suv manbaasi (daryo, suv ombori, kanal, ko'l, dengiz).
2. Suv qabul qiluvchi qurilmalar.
3. Birlamchi nasos stantsiyalari.
4. Tozalash inshootlari.

5. Toza suv idishlari (rezervuarlar).
6. Ikkilamchi nasos stantsiyasi.
7. Bosimli suv idishlari.
8. Vodo'rovod tarmog'i.
9. Vodo'rovod quduqlari.
10. Boshqaruv o'lchov jihozlari.

Er osti suv manbalaridan foydalanib tuzilgan sxemalar.

1. Suv manbaasi (artezan suvlari, buloq suvlari, quduk suvlari, va h.k.o).
2. Nasos stantsiyasi.
3. Vodoprovod tarmog'i
4. Bosimli suv idishlari.
5. Toza suv idishlari.
6. Vodoprovod quduqlari.
7. Boshqaruv o'lchov jihozlari.

Suv tarmog'ining ishlash sharoitiga muvofiq uni ekspluatatsiya jarayonida quyidagi asosiy talablar qo'yiladi :

1. Ichki va tashqi ta'sirlarga chidamli, ya'ni mustaxkam bo'lishi kerak;
2. Suv o'tkazmaydigan-germetik bo'lishi kerak;
3. Quvur ichki devori silliq bo'lishi, ya'ni suv xarakati davomida ishqalanish tufayli eng kam bosim yo'qolishiga erishish lozim;
4. Uzoq muddat ishlashi uchun tashqi va ichki yemiruvchi ta'sirlarga (suv, grunt, grunt suvlari) ga chidamli bo'lishi kerak.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

Ro'yhatga olindi:

№ _____

2023 y. "____" _____

Tasdiqlayman»

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

dots. Q.Inoyatov

«____» _____ 2023 y.

**SUV TAYYORLASH VA SUV QABUL QILISH INSHOOTI
fanining
O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	300 000-	Ishlab chiqarish texnik soxa
Ta'lim sohasi:	340 000-	Arxitektura va qurilish
Ta'lim yo'nalishi:	5340400 -	Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji (Issiqlik-gaz ta'minoti va ventilyatsiya)

Semestr	Mashg'ulot tarkibi						baholash turi	Ja'mi o'quv soati
	Ma'ruza	Amaliy mashg'ulot	Labora- toriya ishlari	Seminar mashg'ulot	Mustaqil ta'lim	Kurs ishi (loyihasi)		
Kunduzgi bo'lim								
VII	30	30	-	-	90	+	TEST	132
VIII	24	16	8	-	90	-	YOZMA	108

Fanning ishchi o'quv dasturi NamMQI ning «____»_____ 2023 y. dagi №_____-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv reja va 2023 yil «____»_____ da tasdiqlangan № BD-5340400-3.05 raqamli "Suv tayyorlash va suv qabul qilish inshootlari" fanining o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

M.K.Negmatov - "Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji" kafedrasida dotsenti

Jo'rayev X.A. - "Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji" kafedrasida katta o'qituvchisi.

Taqrizchilar:

D.B. Axunov - "Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji" kafedrasida dotsenti

Fanning ishchi fan dasturi Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji kafedrasining 2023 yil «____» _____dagi «____» -son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: _____ **dots. Sh. Jo'rayev**

Fanning ishchi fan dasturi Qurilish fakultetining kengashida muhokamadan o'tgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

(2023 yil «____» _____dagi «____» -sonli bayonnoma).

Fakultet kengashi raisi: _____ **prof. M. Mansurov**

K E L I S H I L D I:

Mutaxassislik kafedralari:

Кафедра номи	Имзо	Кафедра мудири И.Ф.Ш
Кафедра номи	Имзо	Кафедра мудири И.Ф.Ш

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i: _____ **dots. T. Jo'raev**

Namangan muhandislik-qurilish instituti o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan. «____»_____2023 y.dagi _____ sonli majlis bayoni. (____ - son bilan ro'yhatga olingan).

I. KIRISH

Ushbu o'quv dasturi "Suv tayyorlash va suv qabul qilish inshootlari" fani shu bilan birga fan va texnikaning so'ngi yutuqlarini hisobga olgan holda zamonaviy tizimlarni ishlatish usullarini, montaj jarayonlarini, sinash va tekshirish ishlarini, energiya tejamkor qilib montaj qilish qoidalarini o'rgatishni talabalarga yetkazib berishga mo'ljallangan dastur bo'lib, muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji ishlarida ularni ma'lum bir sharoitlarda qo'llash va tadbqiq etish masalalarini o'z ichiga oladi.

"Suv tayyorlash va suv qabul qilish inshootlari" fani «Muhandislik kommunikatsiyalarini qurilishi va montaji» ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlashda asosiy fanlardan biri sanaladi. Ushbu fan Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji ta'lim yo'nalishi talabalari uchun eng kerakli fanlardan biri bo'lib bugungi kun talabidagi zamonaviy jixozlarni montaj qilish, muhandislik tizimlarini gidravlik xisob qilish, diagnostika qilish, avtomatlashtirilgan tizimlarni nazorat qilish kabi bir qancha texnik yechimlarni o'z ichiga oladi.

Muhandislik tizimlarini ishlatish jarayonlarini xar bir fuqaro juda xam yaxshi bilishi kerak. Chunki har bir xonadon va sanoatlashgan zonlarda albatta muhandislik tizimlari ishlaydi va bunday tizimlarsiz xech qanday bino va inshootlarni tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun bugungi kunda Muhandislik tizimlarini o'rganish va ishga tushirish kabi malakalarga ega bo'lish uchun Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji ta'lim yo'nalishi kunduzgi ta'lim talabalariga tanlov fan sifatida ushbu fan qo'yildi.

Fanning maqsad va vazifalari

Fanni o'qitishda maqsad –talabalarda istemolchilarga sifatli suv tayyorlash suvni zararsizlantirish usullari shaxar va sanoat korxonalarni suv bilan taminlash va suv manbalaridan oqilona foydalanish tabiiy suvlarni tozalash usullari bu jarayonda ishlatiladigan inshootlarning tuzulishi turlari ishlatilishi ko'lam xicoblash asoslari va ularni muayan sharoitlariga mos xolda tashlash usullari bo'yicha yo'nalishi profiliga mos bilim ko'nikma va malaka shakllantish.

Fanning vazifafi –talabalarga tabiiy suvning tarkibi va xossalari, suvlarni zararsizlantirish suv tayyorlash xamda qabul qilish inshootlarining tuzulishi turlari ishlash nazariyasi xamda ma'lum tozalash tizimi sharoitlari uchun ulardan munosiblarini tanlab xisoblashga o'rgatishdan iborat.

Fanni o'qitish jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

Suv tayyorlash va suv qabul qilish inshootlari fanini o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot - kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi tavsiya etiladi;

- Suv tayyorlash va suv qabul qilish inshootlari fanining nazariy asoslari bo'limiga tegishli ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron - didaktik texnologiyalaridan foydalanish;

- Suv tayyorlash va suv qabul qilish inshootlari fani mavzularida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda zamonaviy Auto CAD, VALTEC, REVIT ARXITEKTURA kabi loyihalash va gidravlik hisoblash dasturlari orqali o'rgatishda aqliy xujum, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalardan foydalanish;

- Suv tayyorlash va suv qabul qilish inshootlari fanining tuzilishini o'rganish va ularning asosiy parametrlarini va elementlarini aniqlash mavzularida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarida kichik guruxlar musobaqalari, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalarini qo'llash nazarda tutiladi.

Fan bo'yicha talabalarning tasavvur, bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

"Suv tayyorlash va suv qabul qilish inshootlari" o'quv fani o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

"Suv tayyorlash va suv qabul qilish inshootlari" fanini o'rganishdan maksad eksperimental tadqiqot asoslari ishlarini bajarish uchun nazariy asoslarga va shuningdek o'lchov asboblari xaqidagi bilimga ega bo'lishdir.

Fanni o'rganishdan maqsad. "Suv tayyorlash va suv qabul qilish inshootlari" fanini o'rganish jarayonida bakalavrlarda ma'lum darajada mutaxassis sifatida kamolga va tayyorgarlikka ega bo'lish uchun zarur bo'lgan bilim asosi yaratiladi.

Fanni o'rganish natijasida bakalavr o'lchash ishlari sohasida bilimga; sinash ishlarini tashkil etishni; eksperimental va tekshiruv ishlarining ma'lumotlarini tahlil eta olish uquviga ega bo'lishi; tekshiruv va sinov ishlarini o'tkazish bo'yicha asosiy ko'nikmalarni egallashi lozim.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi

"Suv tayyorlash va suv qabul qilish inshootlari" fani asosiy ixtisoslik fanlaridan biri hisoblanadi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan matematik va tabiiy (oliy matematika, fizika, kimyo, chizma geometriya va injenerlik grafikasi; informatika va axborot texnologiyalari; ekologiya), umumkasbiy (suyuqlik va gaz mexanikasi; oqova suv ta'minoti; suv taminoti tizimlari;), va ixtisoslik (suv ta'minoti va oqova suvlarni qizish tizimlari, oqova suvlarni oqizish texnologiyasi; suv tayyorlash texnologiasi bino va inshootlarning muxandislik jihozlari; tayyorlash, payvandlash va montaj ishlarining texnikasi va texnologiyasi), menedjment asoslari; qurilish materiallari; buyumlari va metallar texnologiyasi fanlaridan yetarli bilim va qo'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

Fanning ilm-fan va ishlab chiqarishdagi o'rni

Hozirga vaqtda butun dunyoda injenerlik kommunikatsiyalarini sinash, ta'mirlash va ulardan foydalanishdan samarador foydalanish masalasi asosiy masala bo'lib qolmoqda. SHu bois suv ta'minoti, isitish, shamollatish va havoni konditsiyalash tizimlarini loyihalash, qurish, ulardan samarali va ishonchli foydalanishda injenerlik kommunikatsiyalarini sinash, ta'mirlash va ulardan foydalanishni tashkil qilish kabi masalalar ishlab chiqarish uchun juda muhimdir. Shuning uchun ushbu fanni tanlov fanlari qatorida ishlab chiqarish texnologik tizimining ajralmas bo'g'ini hisoblab 5340400-Muhandislik kommunikatsiyalari qurilishi va montaji (Issiqlik-gaz ta'minoti va ventilyatsiya) ta'lim yo'nalishi talabalariga 4-kursda fan sifatida o'tilishi rejaga kiritildi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning "Suv tayyorlash va suv qabul qilish inshootlari" fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish,

yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, stendlardan foydalaniladi. Ma'ruza va amaliy darslarda mos ravishdagi informatsion-pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

Talabalar "Suv tayyorlash va suv qabul qilish inshootlari" fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan jumladan kompyuter ta'minotidan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar va ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va mul'timedia vositalaridan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish, talabalarda muhandislik tizimlarini ishlatishda bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish imkoniyatlarini yaratish.

"Suv tayyorlash va suv qabul qilish inshootlari" o'quv kursini loyihalashtirishda quyidagi asosiy kontseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. SHaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash - yangi kopyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda - kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blits-so'rov, oraliq va joriy va yakunlovchi baholash natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning baholash.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

"Muhandislik tizimlarini ishlatish" fanini o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, Microsoft Excel, Microsoft PowerPoint, shu bilan birga turli xil loyiha hisob dasturlaridan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo'yicha talabalar bilimini baholash test yoki loyiha dasturlarida kichik loyihalarni bajarish asosida o'tkaziladi va kompyuter yordamida bajariladi.

II. ASOSIY NAZARIY QISMI (MARUZA MASHG'ULOTLARI)

Fan tarkibiga quydagi mavzular kiradi

Suv tayyorlash va suv qabul qilish inshootlari faniga kirish.

Tabiiy suv manbaini va ulardan suv bilan taminlash maqsadida foydalanish tabiiy manbalarining turlari. Tabiiy suv manbalarinin xarakteriskalash manbalarining turlari Tabiiy suv manbaini xarakteriskalash manbalarining debiti va uning faoliy o'zgarishi. Turli suv manbalarining sanitarik sifati. Suv manbalaridan oqilona foydalanish va ularni muxofaza qilish tatbirlari.

Suv manbalari, tabiiy suv sifati suv manbalarini suv oluvchi inshootlar.

Asosiy suv istemol qiluvchilar turlari; xo'jalik ichimlik suvlari saodat suvlari yong'in o'chrish suvlari va boshqalar. Suv taminoti tizimlaridagi solishtirma suv sarifi meyor va ushbu qiymatni aniqlash uchun lozim bo'lgan parametirlari.

Suv qabul qilish inshootlarining turlari va ularni joylashtirish.

Suv manbalaridan samarali foydalanishni tashkil etish jarayonlari va bosqichlari. Suv ta'minoti tizimning umumiy tushunchasi va ularning ishlash tarsi. Suv bilan ta'minlash tizimdagi ayrim elimentlarning o'rni va maqsadi.

Ochiq suv manbalaridan suv oluvchi inshootlar.

Ochiq suv manbalaridan suv oluvchi inshootlarning tuzulishi ishlashi prinsiplari va ularning o'ziga xosliklari. Suv olish inshootlarining quvvatini aniqlash. Kun davomida xo'jalik-ichimlik suv sarifini aniqlash.

Daryodan qirg'oqli va o'zanli suv qabul qilish inshootlarining turlari ularning tuzulishi ishlash prinsipi.

SHaxtali suv qabul qilish inshootlarining tuzulishi va ishlash prinsiplari.

Suv qabul qilish inshootlarining muallaq moddalardan yirik jisimlardan va baliqlardan ximoyalash.

Qirg'oqda suv qabul qilish inshootlarini muallaq moddalardan yirik jisimlardan va baliqlardan ximoyalash. O'zidan suv qabul qilish inshootlarining muallaq moddalardan yirik jisimlardan va baliqlardan ximoyalash.

Maxsus suv to'plash inshootlari.

To'g'lardagi daryolardan suv olishning o'ziga xosligi. Suv omborlaridan ko'llardan, dengizlardan suv olish inshootlari. Maxsus suv to'plash inshootlarining o'ziga hosliklari. Tog'lardagi daryolardan suv olishning o'ziga hosligi. Suv omborlaridan ko'llardan suv olish inshootlari.

Yer osti suv manbalaridan suv oluvchi inshootlar turlari.

Yer osti suv manbalaridan suv oluvchi inshootlarning foydalanishning afzalligi va kamchiliklari ularga qo'yiladigan talablar.

Yer osti suvlarning xosil bo'lishi yer osti joylashishi.

Yer osti suvlarining hosil bo'lishi va yer ostida joylashishi chizmalari yer osti suvlarining quduqlardan olishning o'ziga hosliklari.

Suv oluvchi inshootlarning turlari.

Suv oluvchi inshootlarning turlari va usullarini joylashtirish joyini tanlash. Suv oluvchi inshootlarning tuzulishi va ishlash prinsiplari. Suv oluvchi inshootlarning turlari va ularni joylashtirish joyini tanlashla gidrogeologik sharoitlrini hisobga olish.

Yer ostidagi suvlarni quvurlari va shaxtali quduqlarda olish.

Yer ostidagi suvlarni quvurli va shaxtali quduqlarda olish jarayonlari. Yer ostidagi suvlarni quvurli va shaxtali quduqlarda olishning o'ziga xosliklari Yer ostidagi suvlarni quvurli va shaxtali quduqlarda olish.

Gorizontal suv olish inshootlari turlari.

Gorizontal suv olish inshootlarining tuzulishi ishlashi prinsiplari afzallik va kamchiliklari gorizontal suv olish inshootlarini qurish

Nursimon suv olish inshootlaridan foydalanishning o'ziga hosliklari.

Nursimon suv olish inshootlarining tuzulishi ishalash prinsiplari. Infiltratsiyali suv olish inshootlari va ulardan foydalanish.

Yer osti buloq suvlarini kaptaj qilish inshootlari.

Yer osti buloq suvlarini kaptaj qilish inshootlarini loyixalash va ulardan foydalanish asoslari. Yer osti buloq suvlarinin kaptaj qilish inshootlarining afzalik va kamchiliklari.

Ichimlik suv sifatiga qo'yiluvchi talablar.

I chimlik suv sifatiga istemolchilar tomomidan qo'yiladigan talablar. ДТC950-2011 talabalari. Suv sifatini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar. Suv sifatini yaxshilashda qo'llaniladigan inshootlar.

“Suv tayyorlash va suv qabul qilish inshootlari” fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlarining kalendar tematik rejasi

№	Mavzularning nomi	Ajratilgan soat
----------	--------------------------	------------------------

7-semestr		
1	Suv tayyorlash va suv qabul qilish inshootlari faniga kirish	2
2	Suv manbalari, tabiiy suv sifati suv manbalarini suv oluvchi inshootlar	2
3	Suv qabul qilish inshootlarining turlari va ularni joylashtirish	2
4	Ochiq suv manbalaridan suv oluvchi inshootlar	2
5	Daryodan qirg'oqli va o'zanli suv qabul qilish inshootlarining turlari ularning tuzulishi ishlash prinsipi	2
6	Suv qabul qilish inshootlarining muallaq moddalardan yirik jisimlardan va baliqlardan ximoyalash	2
7	Maxsus suv to'plash inshootlari	2
8	Yer osti suv manbalaridan suv oluvchi inshootlar turlari	2
9	Yer osti suvlarning xosil bo'lishi yer osti joylashishi	2
10	Suv oluvchi inshootlarning turlari	2
11	Yer ostidagi suvlarni quvurlari va shaxtali quduqlarda olish	2
12	Gorizontal suv olish inshootlari turlari	2
13	Nursimon suv olish inshootlaridan foydalanishning o'ziga hosliklari	2
14	Yer osti buloq suvlarini kaptaj qilish inshootlari	2
15	Ichimlik suv sifatiga qo'yiluvchi talablar	2
	Jami soat	30

Asosiy nazariy qismi (maruza mashg'ulotlari)
Fan tarkibiga quydagi mavzular kiradi

Texnik suv sifatiga qo'yiluvchi talablar.

Suv ta'minoti tizimlarida texnik suv istemolchilari Texnik suv yetkazib berish usullari. Texnik suv sifatiga qo'yiluvchi talablar. Ishlab chiqarish uchun talaba qilingan suvlarga qo'yiluvchi talab.

Qurilishda ishlab chiqarish extiyojlari uchun ishlatuvchi suv sifatiga qo'yiluvchi talablar.

Qurilishdagi ishlab chiqarish jarayonlari uchun suv yetkazib berishning o'ziga xosliklari va suv yetkazib berish usullari. Qurilishdagi ishlab chiqarish extiyojlari uchun ishlatuvchi suv sifatiga qo'yiluvchi talablar.

Suv tahlili, suv sifatini o'rganish bo'yicha tahlillar o'tkazish usullari.

Suvning kimyoviy va fizik tahlili. Suvning kimyoviy fizikaviy taxlili bo'yicha suvni tozalash usullarini aniqlash

Tozalash inshootlari tarkibi.

Suv ta'minoti tizimlaridagi tozalash inshootlari va ulardaagi qurulma xamda uskunalarning ishlash jarayonlari. Tozalash inshootlarining loyqalik va boshqa ko'rsatkichlariga qarab tarkibini aniqlash.

Tozalash stansiyalari inshootlari quvurlari va kanallarida suv xarakati tezligini aniqlash.

Tozalash stansiyalari inshootlari quvurlari va kanallarida suv xarakarti tezligini tanlash xamda gidravlik xisobini amalga oshirish. Tozalash stansiyalari inshootlari

quvurlari va kanallari suv xarakati tezligini tanlash xamda gidravlik xisob ishlarini amalga oshirishdan maqsad.

Tozalash stansiyasi samaradorligini aniqlash.

Tozalash stansiyasi quvvatini va samaradorligini aniqlash. Tozalash stansiyasi quvvatini va samaradorligini aniqlash formulasi. Tozalash stansiyasi quvvatini va samaradorligini aniqlash uchun lozim bo'lgan kattalik va qiymatlarini aniqlash.

Stansiyalar komponovkasining asosiy xolatlari.

Suv tozalash stansiyalar komponovkasi. Suv tozalash stansiyalarning komponovkasining asosiy xolatlari inshootlarning joylashish tartibi.

Regentlar haqida umumiy ma'lumotlar.

Suv tozalash jarayonida qo'llaniladigan reagentlar haqida umumiy ma'lumotlar. Regentlar turlari va tarkibi ularning o'ziga xosliklari. Regentlar qo'shish tartiblari va tayyorlash usullari.

Suvni tindirish va rangsizlantirish jarayonlarining intensifikatsiyalash.

Poliakrilamidalanish foydalanishdan ko'zlangan asosiy maqsad va vazifalari PAA xossalari va ishlatish qurilmalari

Koagulyatni siqilgan havo bilan eritish uchun uskuna.

Koagulyatni siqilgan havo bilan eritish uchun uskuna. Koagulyatni tayyorlash qurilmalari. Oxakli sutni tayyorlash. Oxakli sutni tayyorlash jarayonida uchraydigan muammolari yechimi.

Reagentlar ombori, Suv tozalash inshootlaridagi reagent omborida reagentlarni joylashtirish.

Suv tozalash inshootlaridagi reagent uzatuvchi nasoslar. Reagent eritmasini tozalash. Reagent eritmasini tozalashva ularda ishlatiladigan nasos qurilmasi.

Pag'a xosil qiluvchi kameralar.

Suv tozalash inshootlaridagi xosil qiluvchi kameralarning tuzulishi va o'ziga xosligi. Pag'a xosil qiluvchi kameralarning tindirgichdan farqi. Pag'a xosil qiluvchi kameralar ishlash prinsiplari.

“Suv tayyorlash va suv qabul qilish inshootlari” fani bo'yicha ma'ruza

mashg'ulotlarining kalendar tematik rejasi

№	Mavzularning nomi	Ajratilgan soat
8-semestr		
1	Texnik suv sifatiga qo'yiluvchi talablar	2
2	Qurilishda ishlab chiqarish extiyojlari uchun ishlatuvchi suv sifatiga qo'yiluvchi talablar	2
3	Suv tahlili, suv sifatini o'rganish bo'yicha tahlillar o'tkazish usullari	2
4	Tozalash inshootlari tarkibi	2
5	Tozalash stansiyalari inshootlari quvurlari va kanallarida suv xarakati tezligini aniqlash	2
6	Tozalash stansiyasi samaradorligini aniqlash	2
7	Stansiyalar komponovkasining asosiy xolatlari	2

8	Regentlar haqida umumiy ma'lumotlar	2
9	Suvni tindirish va rangsizlantirish jarayonlarining intensifikasiyalash	2
10	Koagulyatni siqilgan havo bilan eritish uchun uskuna	2
11	Reagentlar ombori, Suv tozalash inshootlaridagi reagent omborida reagentlarni joylashtirish	2
12	Pag'a xosil qiluvchi kameralar	2
	Jami soat	24

Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma tavsiyalari

Amaliy mashg'ulotlarni uchun quydagi mavzular tavsiyalar

